

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Termiz davlat universiteti

Normurod Murodov

FORS TILI

آموزش زبان فارسی

O‘zbek filologiyasi yo‘nalishi bakalavr bosqichi talabalari uchun
qo‘llanma

Termiz – 2009

Normurod Murodov

Fors tili

(O‘zbek filologiyasi yo‘nalishi bakalavr bosqichi talabalari uchun
qo‘llanma)

Universitet Ilmiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Mas’ul muharrir: filologiya fanlari nomzodi, professor
J.OMONTURDIYEV

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori, professor
D.S.QULMAMATOV, filologiya fanlari doktori,
professor A.ABDULLAYEV

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, boy milliy qadriyatlarimizni tiklash, ma‘naviy merosimizni o‘rganish dolzarb vazifa ekani davlat hujjatlarida o‘z ifodasini topdi. Ma‘lumki, ana shu boy manba‘larning ma‘lum qismi fors tilida bitilgan.

Fors tili kursining asosiy maqsadi ana shu tilni mukammal egallagan, uni ilmiy izlanishlarda qo‘llay oladigan, mazkur tilda bitilgan tarixiy manbalarni o‘qib tadqiq eta oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Shuningdek, kursning vazifalari: talabalarda fors tilida so‘zlasha olish, so‘zlarni qo‘shib gap tuzish, amaliy ko‘nikmalari bilan qurollantirish; fors tili fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi, sintaksisi bo‘yicha aniq va sistemali bilim berish; talabalarning lug‘at boyligini oshirish va uni shakllantirish; talabalarni tarixiy qo‘lyozmalar tili, yozuv turlari, qo‘lyozma asarlar va ularning xususiyatlari bilan tanishtirishdan iborat.

Egallangan bilimlar eski o‘zbek tili va yozuvi fanidan olingan bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, arab yozuvida bitilgan qo‘lyozma manbalarni o‘qish va ularni tahlil qilishda asosiy hamkor bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalar fors tilini o‘rganish jarayonida quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashi lozim: fors va o‘zbek tillarida yozilgan mazkur qo‘llanma talabalarda qo‘lyozma asarlarni o‘qish, lug‘at yordamida tarjima qilish, fors tilidagi matnlarda grammatik hodisalarni kuzatish, tahlil qilish va tushintirib bera olish, fors tili grammatikasining asosiy qoidalarini o‘zlashtirish, talab darajasida lug‘aviy boylikka ega bo‘lish, o‘zbek tiliga o‘zlashgan forscha so‘z va so‘z birikmalarining ma‘nosi va tarkibini tushintira olish, o‘zlashtirilgan mavzular doirasida o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma bayon eta olish va arab-fors yozuvida yoza olish, o‘qilgan matnlarni fors tilida mustaqil ravishda bayon qilib bera olish, shuningdek, turli mavzularda erkin savol-javob qila olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Talabalar eski o‘zbek yozuvi, o‘zbek mumtoz adabiyoti, g‘azal tahlili, o‘zbek adabiy tili tarixi, o‘zbek tilining tarixiy grammatikasini o‘rganish jarayonida forscha atama va iboralarga duch keladilar. Shunday kezlarda fors tilidan olingan bilim va ko‘nikmalar katta va samarali yordam berishi shubhasizdir.

Qo‘llanmani yaratishda ta‘limning interaktiv metodlari nazarda tutilib, fors tilidagi audio-video yozuvlar, turli ko‘rgazmali qurollar, fors tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan elektron darslik va teledasturlar, bundan tashqari, E. L. Gladkovaning „Uchebnik persidskogo yazika“, I.K. Ovchinnkovaning “Uchebnik persidskogo yazika”, A. Quronbekov, M. Abdusamatov, L. Xalilovlarning “Fors tili” darsliklaridan ijodiy foydalanildi.

KIRISH

Hozirgi fors tili hind-yevropa tillar oilasiga mansub bo'lgan eroniy tillarining janubiy-g'arbiy guruhiga kiradi. Hozirgi fors tili Eronning davlat va adabiy tili sifatida mamlakatning barcha qismlariga tarqalgan.

Eroniy tillar guruhiga kiradigan tillar Eron, Iroq, Afg'oniston, Pokiston, Markaziy Osiyo, Rossiya, Kavkazorti sarhadlarida tarqalgan fors, dari, tojik, pushtu, osetin, kurd, tot, baluchi, tolish, gilon, mazondaron, shug'onon, vahon, yazg'ulom, ishkashim, munjon, omuri, parachi, yag'nob, lur, baxtiyoriy kabi tirik tillar. Shu bilan birga Eroniy tillar guruhiga avesto, qadimgi fors, midiya, elan, o'rta fors tili (pahlaviy), parfiya, sug'd, xorazm, sak, baqtriya singari o'lik tillar ham mansubdir.

Eronda keyingi yillarda avesto, qadimgi va o'rta davr fors tillarini o'rganishga katta e'tibor bermoqdalar. Bu tillar leksikasi va morfologiyasi asosida ko'pgina qo'llanmalar tayyorlangan.

Tillarning ilmiy jihatdan turlarga ajratish uchun uning tarixini hamda tilning o'zini chuqur o'rganish zarur.

Fors tili jahonning eng qadimgi yozuvga ega bo'lgan tillaridan biridir. Bu tilda juda boy va rang-barang adabiyotlar yaratilgan.

Fors tili uzoq asrlar davomida Afg'oniston, Markaziy Osiyo, Hindiston, Ozarbayjonda ham qisman adabiy va davlat tili sifatida qo'llanib kelgan.

Fors tili o'zining uzoq davrli tarixi davomida uch taraqqiyot bosqichini o'tagan. Bular fors tilining qadimgi, o'rta va yangi davr taraqqiyot bosqichlaridir.

Fors tilining qadimgi davr taraqqiyoti bosqichi eramizgacha bo'lgan VI–III asrlarni o'z ichiga olib, Ahamoniylar davlatining davlat tili bo'lgan. Bu davrdagi fors tilining yozma yodgorliklari juda kam saqlanib qolgan bo'lib, ular hozirgacha Ahamoniy podshohlarining saroylari peshtoqlariga, qabr toshlariga o'yib yozilgan yozuvlar shaklida yetib kelgan, xolos.

Bu yozuvlarda podshohlarning taxtga o'tirishi, ularning qilgan ishlari hamda o'sha davrning muhim voqealari haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Bu yozuv yodgorliklari tilining uslubi bir-biriga juda yaqindir.

Qadimgi fors tili yodgorliklarining qimmatini shundaki, bu yodgorliklar bizgacha hech qanday o'zgarishlarga uchramay, asl holida yetib kelgan. Masalan, Doro I ning (522–486) mashhur Behistun qoya yozuvi bo'lib, u podshoning g'alabalari haqida qoyatoshga o'yib yozilgan. Bu yozuvlarni qoldirishdan maqsad, ahamoniy podshohlarning qahramonliklari va g'alabalari, ular yashagan davrning tarixiy voqealarini tarixda abadiy saqlab qolish edi. Bu yozuvlar asosan 3 tilda: qadimgi fors, elan va vavilon tillarida bajarilar edi.

Qadimgi fors tili o'zining grammatik qurilishi jihatidan zoroastrizmning muqaddas kitobi "Avesto"ga yaqindir. Qadimgi fors tili yodgorliklarini o'qib o'rganish, ularni "Avesto" bilan taqqoslash orqaligina mumkin bo'ldi. Avesto tili qadimgi fors tilidan qadimiyroq. Avestoning qadimgi qismi Gatning tili, tovush tarkibi va grammatik formalari bilan qadimgi hind tiliga yaqin bo'lib, ularni bir

vaqtda bir til bo'lgan deb qarash ham mumkin. Qadimgi fors va Avesto tillarida jins (rod)ning grammatik kategoriyalari (m, j, sr), 3 ta son (birlik, ikkilik, ko'plik) va kelishiklar (qadimgi fors tilida 7 ta, avestoda – 8 ta) bo'lgan.

Fors tilining o'rta davr taraqqiyoti bosqichi eramizning III–VI asrlarini o'z ichiga oladi. Bu davrda o'rta fors tili Eronning sharqiy qismi Forsda rivojlangan edi. Bu davrdagi fors tilining yodgorliklari juda ko'p va turli-tumandir. Bular sosoniylar hukmdorlarining turli diniy mazmundagi yozuvlari, "Avesto"ning tarjimai, tanga, muhr va har xil metall buyumlarga o'yilgan yozuvlardir.

O'rta davr fors tili sosoniylar davlati va zoroastrizmning rasmiy tili bo'lib xizmat qilgan. Bu davrdagi fors tilining yozuvi oromiy yozuviga asoslangan bo'lib, ideogrammalar yordamida, ya'ni oromiy til so'zlari bilan, o'rta davr fors so'zlari belgilar bilan yozilib, forscha o'qilgan.

O'rta davr fors tili grammatik qurilishining soddaligi va fonetik jihatdan rivojlanganligi bilan qadimgi fors tilidan farq qiladi.

Manbalarda fors tilining bu davriga oid turli yodgorliklari bilan birga so'g'd, sak va xorazm tillariga doir ma'lumotlar bor.

Eronda arab xalifalari hukmronligi davrida (VII–IX asrlarda) davlat va adabiy til arab tili edi.

Shuning uchun ham bu davrda fors tilida yozilgan birorta hujjatning borligi hanuzgacha ma'lum emas. Bu hol forslarning faqat arab yozuvi va arab tilida yozganliklarini ko'rsatadi. Ma'lumki, arablar hukmronligi davrida Markaziy Osiyolik mashhur olimlar Al-Xorazmiy, Abunasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Aburayhon Beruniy ham o'z asarlarini arab tilida yozgan edilar.

Fors tilining yangi davr taraqqiyot bosqichi IX asrdan hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. IX asr boshlariga kelib, Markaziy Osiyo va Xurosonda adabiy til paydo bo'lib, tojik va forslarning umumiy tili bo'ldi.

Hozirgi fors va tojik tillari dastlab bir til bo'lib keyinchalik rivojlanish jarayonida ikki tilga bo'linib ketgan. Yangi fors tili fors-tojik xalqlarining o'z mustaqil davlatlarini barpo qilish va o'z ona tillarida adabiyot yaratish uchun arab xalifaligiga qarshi olib borgan kurashlari natijasida Somoniylar davrida (IX–X asr) vujudga keldi.

Fors tilining yangi davr taraqqiyoti bosqichida juda ko'p boy yozma asarlar yaratildi. Bular, asosan, fors adabiyotining yirik vakillari tomonidan yaratilgan adabiy-badiiy asarlar va mashhur tarixshunoslar tomonidan yozilgan tarixiy-ilmiy yodgorliklardan iborat. Masalan, Buxoroda Rudakiy (X asr), Xurosonda Firdavsiy (X–XI asr), Nishopurda Umar Hayyom (XI–XII), Sa'diy (XII–XIII) va Hofiz (XIV) Sherozda, Jomiy (XV) Hirotida ijod qilganlar.

Fors tilida buyuk olim Abu Ali Ibn Sino, buyuk tarixchilar Gardiziy, Bayhaqiy, Rashiddinlar ijod qilishgan. Bu davrda turli markazlarda bu tilda yozilgan badiiy va ilmiy asarlar til nuqtai nazaridan bir-biriga qiyos qilsak, ba'zi bir leksik xususiyatlarini nazarda olmaganda, bu yodgorliklar tilining umumiy bo'lganligini ko'ramiz.

Bu davr fors-tojik tilida yaratilgan adabiyot O'rta dengizdan tortib, Hindistonga qadar bo'lgan keng hududni o'z ichiga oladi va bu adabiyot eron, afg'on, tojik, ozarbayjon, hind va o'zbek xalqlari tomonidan yaratilgandir.

Fors tili tarixini bunday davrlarga – taraqqiyot bosqichlariga bo'lib o'rganish bir muncha shartlidir. Til juda sekinlik bilan o'zgarib boradi. U to'satdan jiddiy o'zgarishlarga uchramaydi, aks holda omma uchun tushunarli bo'lmay qoladi, o'zining aloqa quroli bo'lishidek ulkan vazifasini yo'qotib qo'yadi. Shuning uchun tilning taraqqiyot davrlarini bir-biridan qat'iy chegaralar bilan ajratib qo'yib bo'lmaydi .

IX asrda adabiy til sifatida rasmiylashgan fors tili o'zining hozirga qadar bo'lgan ming yillik taraqqiyoti davrida ancha o'zgarishlarga uchradi. Bu o'zgarishlar asosan uning lug'at tarkibida paydo bo'ldi. Ya'ni qadimgi adabiy yodgorliklar tilida uchragan juda ko'p so'zlar hozirgi zamon fors tilida uchramaydi va aksincha, fors tili arab, turk-mo'g'ul, hamda G'arbiy Ovrupo tillaridan kirgan juda ko'p so'zlar hisobiga lug'at tarkibini boyitdi.

XX asr boshlariga kelib, Eronda fors adabiy tilini jonli tilga yaqinlashtirish harakati boshlandi. Ko'p yozuvchilar o'z asarlarida jonli tilga xos bo'lgan so'z va iboralarni ishlatishga harakat qildilar. Shunday bo'lishiga qaramay, Fors adabiy tili bilan jonli til o'rtasida ancha tafovut saqlanib kelmoqda. XIX asrning oxiriga kelib bu tilda proza juda rivojlandi. Uning rivojlanishiga hozirgi Eron yozuvchilaridan Sodiq Hidoyat, Bo'zo'g Alaviy, Muhammad Ali Jamolzoda, Sodiq Chubak, Jalol ol Ahmad, Xusrav Shohani, G'ulomhusayin Saidiy, Bahrom Sodihiy, Jalol Mir Sodihiy, Ismoil Fosih, Ahmad Mahmud shoirlardan Suxrob Sepahri, Ahmad Shomlular katta hissa qo'shdilar. کمنتت

Fonetika

Fors tilida unli tovushlar

Unli tovushlar deb talaffuz jarayonida biron to'siqqa uchramaydigan tovushlarga aytiladi. Fors tili olti unli fonema va diftong bor: Bular quyidagilar: “i”, “e”, “o”, “u”, “o' ”, “a” yakka unililar va “ey”, “o'u” diftonglari.

Unli tovushlar odatda ularning xossasiga ko'ra tasnif etiladi: Unli tovushlarning xossalari uch belgiga ega:

- a) hosil bo'lish qatoriga ko'ra;
- b) til ko'tarilish darajasiga ko'ra;
- c) labning qatnashuviga ko'ra.

Fors tilidagi unililar hosil bo'lish qatoriga ko'ra old qator va orqa qator unililariga bo'linadi. “i”, “e”, “a” unililari old qator va “u”, “o' ”, “o”, orqa qator unililari hisoblanadi.

Har bir qatorda tilning uch xil ko'tarilish darajasi ko'zda tutiladi; yuqori, o'rta, quyi. Oldingi qator unililardan “i” yuqori daraja, “e” o'rta daraja “a” quyi darajada til ko'tarilishidan hosil bo'ladigan unli tovushlar hisoblanadi. O'zbek tilidagi orqa qator unililardan “u” yuqori daraja, “o' ” o'rta daraja va “o” quyi darajada til ko'tarilishidan hosil bo'ladigan unililar hisoblanadi. “i”, “e”, “a” oldingi qator unililari lablanmagan, “u”, “o' ”, “o”, orqa qator unililari lablangan unililardir.

Fors tilida unlilar jadvali

Qator	lablanmagan		lablangan
Til ko'tarilish darajasi	old	O'rta	orqa
yuqori daraja	I	-	U
o'rta daraja	E	-	O'
quyi darajada	A	-	O

Fors tili unlilarning o'ziga xos belgilaridan biri ulardagi cho'ziq qisqalik xususiyatidir.

Zamonaviy ko'rsatgichga ko'ra:

“u”, “o” “i”, cho'ziq unlilar, “e”, “a”, o'” qisqa unlilar hisoblanadi.

Cho'ziq unlilar urg'uli, urg'usiz, ochiq yoki yopiq bo'g'inlarda kelishidan qat'i nazar, o'z cho'ziqlik xususiyatini saqlab qoladi.

Qisqa unlilar esa urg'uli bo'g'inlarda urg'u tushmaydigan bo'g'inlarga nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Shuning uchun ba'zan bu unlilarning bu xususiyatlarini nazarga olgan holda sobit unlilar, “i”, “u”, “o” va nosobit unlilar “e”, “a”, o'” ga ham ajratiladi.

1-mashq. Quyidagi so'zlarda unlilarning talaffuz xususiyatlariga e'tibor bering.

Qisqa unlili so'zlar:

Sar
Ser(r)
To'
Xo'dro'u
Madraxe
Yek
Do'
Panj
Go'l
Pesar
Do'xtar
Pedar

Cho'ziq unlili so'zlar:

bini
dono
pir
momon
nuri
sol
pir
solor
tutun
somon
kutoh
monus

2-mashq. Qisqa va cho'ziq unlilardan iborat so'zlarning talaffuz xususiyatlariga e'tibor bering.

Modar, mardone, nehmonxone, obrumand, go'fto'gu, xonegi, kabutar, kelid, nevisande, zanone, shefoxone, xo'rshid, setore, mohetobon, ketobxone, darsi, bimoreston.

Fors va o'zbek tilidagi unlilarning talaffuzidagi asosiy farqlar

O'zbek tilida ham fors tilidagi kabi oltita unli fonema mavjud: a, o, I, e, u, o'. Ular son jihatdan bir xil- 6 ta, lekin sifati bilan farq qiladi.

Birinchi farqi bu fors tilidagi unlilarning hosil bo'lish qatoridagi farqidir; o'zbek tilidagi "i" unlisi fors tilidan farqli ravishda til orqa qatoriga ham xosdir, "u" va "o" unlilarining, fors tilidan farqli ravishda, til oldi varianti ham mavjud:

Mas: til oldi qatori

Ish
Tish
Biz
Kelin
Kul
Gul
Uzum
Sunbul
O'rdak
Ko'l
Ko'klam
G'o'za

til orqa qatori

qiziq
qir
qiz
qimiz
qul
pul
qulum
qum
o'roq
qo'l
yo'l
bo'l

Fors tilidagi unlilarning o'zbek tilidagi unlilardan ikkinchi bir keskin farqi "i", "u" fonemalarining cho'ziqlik xususiyatidir. O'zbek tilidagi "i" va "u" unlilari cho'ziqlik xususiyatiga ega emas. Fors tilidagi "o" unlisi bilan o'zbek tilidagi "o" unlisi deyarli bir xil cho'ziq talaffuz qilinadi.

"i" unlisi

Fors tili
til oldi
ijod
digar
imon
niru
pishin
nomiy
hodiy

O'zbek tilida
til oldi
iliq
mil
til
siz
yirik
birikish
ming

O'zbek tilida
til oldi
idish
mix
tig'
sir
qizil
qimiz
qirg'iz

"u" unlisi

Fors tilida
Nur
Niru
Buy
Bute
Bud
Pul
Push

yumshoq "u"
gul
kul
uch
uchun
kuch
puch
bulbul

qattiq "u"
qush
qul
tur
qur
bur
ur
qum

"o" unlisi

Fors tilida

O'zbek tilida

Obod
Osmon
olam

obod
osmon
olam

Diftonglar

Fors tilida unlilardan tashqari ikkita diftong: “ey” va “ou” uchraydi. Ikkita unli tovush birikmasini ifodalagan tovushga diftong deyiladi. Masalan: *eyvon*, *keyvon*, *so‘ugand*, *xo‘dro‘u*.

Diftonglar so‘zda faqat undosh tovushlardan avval so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va oxirida uchraydi.

Unli tovushlardan oldin hech qachon diftonglar uchramaydi va bunday holatlarda diftong birikmasining ikkinchi bo‘lagi undosh tovushga aylanadi: *peyro‘u*- *peyravon* – *peyravi*.

3-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘bek tilidagi ayni so‘larning talaffuzi bilan qiyoslang.

Fors tilida	O‘zbek tilida	Fors tilida	O‘zbek tilida
Eyvon	ayvon	ho‘usale	hafsala
Peydo	paydo	ho‘uz	hovuz
Peyro‘u	peyrav	ho‘ule	hovli
Peyg‘ambar	payg‘ambar	do‘uron	davron
Peymon	paymon	do‘ure	davra
Heyvon	hayvon	do‘ulat	davlat
Heydar	haydar	ro‘ushan	ravshan
Reyhon	rayhon	ro‘ushaniy	ro‘shnolik
Zeytun	zaytun	zo‘usale	zavraq

4-mashq. Berilgan so‘zlardan diftongli so‘larni ajrating.

Osoyesh, avval, ovizon, oine, boloye, boyad, baroye, beyond, beyt, bidor, beyon, beyt, didor, beyn, biniyoz, poyin, piyoz, to‘shak,,to‘zih, jelo‘u, javob, jo‘ur, jo‘uhar, choy, cheto‘ur, hekoyat, ho‘ule, hayot, xovar, xiyobon, xeyli, dey, davozdah, devist, divone.

Undoshlar

Undosh tovushlar deb, ichkaridan chiqayotgan havo nutq a’zolarining biron erida to‘siqqa uchrab sado hosil qilishiga aytiladi.

Unlilardan farqli ravishda undoshlarni tasnif qilish ancha murakkabroq bo‘lib, paydo bo‘lish o‘rni, aytilish usuli, toyush paychalari ishtiroki, tarkibi va yana boshqa xususiyatlariga ko‘ra aniqlanadi.

Fors tilida 23 ta undosh bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: b, p, t, s, j, ch, h, x, d, z, r, j, sh, g‘, f, k, g, l, m, n, w, y, ’ .

Fors tilidagi undoshlar yuqoridagi belgilarga qarab farqlanishi jadvalda shunday aks topadi.

Fors tili undoshlari jadvali

Portlovchi	sof		Lab-lab	Lab-tish	Til oldi	Til o'rti	Til orqa	Halqum	kekirdak	Bo'g'iz
		Bedimog'	P,b		T,d	K,g				
		Dimog'li	M		N					
	Qorishiq				Ch,j					
Sirg'aluvchi	O'rti	Bir manbali		F,v	S,z	Y		X, g'	H	
		Ikki manbali			Sh,j					
	yon				L					
	Titroqli				R					

Fors tilidagi undoshlar bilan o'zbek tilidagi undoshlarning o'xshash va farqli tomonlari

O'zbek adabiy tili undoshlar tizimida 25 ta fonema bor. Miqdor jihatidan fors tiliga nisbatan 2 ta fonema ko'p.

Fors tilidagi asosiy undoshlar tizimi, ularning talaffuzidagi o'ziga xos xususiyatlarga qaramasdan, deyarli bir xil.

Fors tili undoshlar tizimidagi fonemalarning o'zbek tilidagi undoshlardan farqli tomoni shundaki, fors tilida "q" undoshi uchramaydi va o'zbek yoki boshqa tillardan o'zlashgan so'zlardagi "q" tovushi ham "g'" shaklida qilinadi. Masalan: turkiytilidagi "cho(p)qu", "chog'u" shaklida, arabcha "qudrat", "g'o'drat" shaklida va h.k.

Fors tilida "ma'ni", "ta'lim", "erfon", so'zlaridagi " ' " tovushi bo'g'iz tovushi sifatida ajratiladi. Bu tovush arabchadan o'zlashgan so'zlarda uchrasa ham fors tilida arab tilidagi artikulyatsiya xususiyatlarini saqlab qolmagan va faqat tovushlarni cho'ziqraq talaffuz qilish va bir- biridan ayirish uchun xizmat qiladi hamda bu jihatdan o'zbek tilidagi talaffuziga o'xshash.

5-mashq. Quyidagi fors va o'zbek tillardagi bir xil undoshlarning talaffuziga e'tibor bering.

O'zbek tilida

qobil
qozi
qoq
qolib
qonun
qadah
qudrat
qurbon
qorako'l

Fors tilida

g'obel
g'ozi
g'og'
g'oleb
g'onun
g'adah
g'odrat
g'orbon
g'arako'l

6-mashq. Fors va o'zbek tillardagi arab tillaridagi arab tilida kirib kelgan bo'g'iz tovushi “ ’ ” ning talaffuziga e'tibor bering.

Fors tilida	O'zbek tilida	Fors tilida	O'zbek tilida
E'ona	iona	ta'bir	ta'bir
E'tebor	e'tibor	qat'I	qat'iy
E'tedol	e'tidol	taajjo'b	taajjub
E'teroz	e'tiroz	sham'	sham
E'teqod	e'tiqod	tame'	tama
Ba'zi	ba'zi	man'	man
Ta'odil	taodil	naf'	naf
Ta'oro'f	taorif	g'al'e	qal'a
Vo'ez	voyiz		

Fors tilida undoshlarning so'zda ishlatilishining ba'zi xususiyatlari

1. Fors tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, so'z boshida qo'sh undoshlar yonma-yon kelmaydi. Agar chet tillardan o'zlashgan so'zlarda shunday holatlar uchrasa ular orasiga yoki ulardan oldin «e» yoki «o'» unlisi orttiriladi. Masalan: «stakan», «estakan», «traktor» - «terektor» va shunga o'xshash. Bu hodisa oldinlari o'zbek tilida ham kuzatilgan, lekin sho'rolar davrida rus va internatsional so'zlar aynan talaffuz shaklini saqlab qolish rasm bo'ldi. Masalan: stol-ustal, shtraf-ishtaraf, stansiya-istansa shaklida talaffuz qilingan edi.

«I» va «r» undosh tovushlaridan iborat so'zlar bundan mustasno. Masalan: «proje», «plan» va shunga o'xshash.

2. Arab tilidan kirib kelgan ba'zi so'zlar oxirida kelgan qo'sh undoshlardan biri tushib qoladi. Masalan: arab tilidagi hadd, durr, sirr so'zlari fors tilida, had, do'r, ser shaklida talaffuz qilinadi.

Fors tilidagi bu so'zlar oxiriga boshqa qo'shimcha qo'shilishi bilan qo'sh undoshlar talaffuz tiklanadi. Masalan: «had-de hadde», «dor-dorre yatim» va h.k.

«i», «u», « o » cho'ziq unlilari

«I», «u», «o» unlilari o'z talaffuz xususiyatlariga ko'ra har doim bir xil cho'ziqlikka ega bo'lib, o'zining urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishi, qaysi harflardan keyin kelishidan qat'iy nazar doimo sobit talaffuz qilinadi. «I» unlisi – old qator, yuqori ko'tarilgan, lablanmagan, cho'ziq (sobit) unlidir.

a) Fors tilidagi «i» unlisi keskin farq qiladi. O'zbek tilidagi «i» unlisi qisqa unli bo'lib, old qator «i» va orqa qator «i» (ы) variantlariga ega. Fors tilida esa «i» unlisi so'z boshida, o'rtasida, yoki oxirida kelishidan qat'iy nazar doimo cho'ziq talaffuz qilinadi.

b) Fors tilidagi undoshlar «i» unlisidan odin biroz yumshoq talaffuz qilinadi. Masalan: *sin, din, bini*.

Fors tilidagi «u» unlisi orqa qator, yuqori ko'tarilgan, lablangan cho'ziq (sobit) unlidir.

Fors tilidan farqli ravishda o'zbek tilidagi «u» unlisi qisqa talaffuz qilinadi.

O'zbek tilidagi «u» unlisining fors tilidan farqli ravishda ham orqa qator va ham old qator variantlari mavjud. Masalan: orqa qator: *gul, kul, buyuk*.

c) Fors tilidagi «u» unlisi urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishdan qat'i nazar, cho'ziq talaffuz qilinadi. Masalan: *rude, niru, kur*.

Fors tilidagi «o» unlisi, orqa qator, quyi ko'tarilgan, lablangan, cho'ziq (sobit) unlidir.

a) O'zbek tilidagi «o» unlisining fors tilidagi «o» unlisidan farqi shuki, o'zbek tilidagi «o» lablashgan unlidir.

b) O'zbek tilidagi «o» unlisi urg'uli bo'g'inda cho'ziqroq talaffuz qilinadi va urg'usiz bo'g'inda qisqaroq. Fors tilida «o» unlisi qaysi bo'g'inda kelishidan qat'iy nazar birday cho'ziq talaffuz qilinadi.

7-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qituvchi bilan talaffuz qiling.

- a) in, si, chin, nim, sir, sini, bini, simin, shir, shirin, tir, pir;
b) mu, ru, bu, su, dur, gur, bumi, birun, tuman, tut, pushok, duri;
s) on, mo, non, nom, mor, mors, bodom, boron, bozor, bimor, bidar, bonu, zonu, bozu, forsi, zibo, iron.

8-mashq. Quyidaga so'zlarni yod oling.

mu	-soch	bozor	-bozor
bini	-burun	mo	-biz
non	-non	forsi	-fors tili
mor	-ilon	bozu	-bilak
modar	-ona	zonu	-tizz
u	-u	Iron	-Eron
ru	-yuz	zibo	-chiroyli
nom	-ot, ism	bor	-yuk

Qisqa unlilar: “e”. “a”, “o”

Qisqa unlilar, cho'ziq unlilardan farqli ravishda, so'zda tutgan o'rniga va fonetik holatiga qarab o'zgarib turadi. Qisqa unlilar ham miqdor, ham sifat jihatidan o'zgaruvchan tovushlardir. Qisqa unlilar urg'u tushish-tushmasligiga qarab, gohida cho'ziq, gohida o'ta qisqa talaffuz qilinadi. Undan tashqari qisqa unlilar talaffuziga uning qanday undoshlar bilan yonma-yon turishi ham ta'sir ko'rsatadi. Qisqa unlilar sifat jihatidan ham turli pozitsiyada turlicha: gohida oldingi qatorda, gohida orqa qatorda talaffuz qilinadi.

Qisqa unlilardan «e» unlisi oldingi qator, o'rta ko'tarilgan, lablanmagan, nosobit tovushdir.

«E» qisqa unlisi fors va o'zbek tillari uchun mushtarak so'zlarda «i»ga aylanib, ba'zida majhul «e» shaklida talaffuz qilinadi.

fors tilida	o'zbek tilida
eqbol	iqbol
eslom	islom
ketob	kitob
noder	nodir

O'zbek tilida «e» unlisi ko'pincha so'z boshida va so'z o'rtasida uchraydi, so'z oxirida faqat o'zlashgan so'zlarda uchrashi mumkin.

Fors tilida bu unli so'z boshida, asosan, arab tilidan o'zlashgan so'zlarda uchrab, o'zbek tilidagi «e» ga ko'ra orqa qatorda, yopiqroq va kuch bilan talaffuz qilinadigan tovushdir.

«E» unlisi ikkita jarangsiz undosh orasida va urg'usiz bo'g'inlarda ko'proq qisqaradi. Masalan: ketab – kitob, sekke – tanga. «E» tovushi «y» undoshidan va «i» unlisidan oldin kelganda o'ta qisqa va yopiq tovushga aylanadi. Masalan: beist-biist, beya-biya shaklida talaffuz qilinadi.

«E»tovushi so'z oxirida o'zbek tilidagi «e»ga yaqinroq ochiq va old qatorda, yumshoqroq talaffuz qilinadi: masalan; sine-sina, gune-yanog, rude-ichak va shunga o'xshash. «A» qisqa unlisi oldingi qator quyi ko'tarilgan, lablanmagan nosobit tovushdir. Uning talaffuz xususiyatlari o'zbek tilidagi «a» tovushi bilan deyarli bir xil. Farqi shundaki, «a» unlisi so'z oxirida deyarli uchramaydi va hatto o'zlashgan so'zlardagi so'z oxiridagi «a» tovushi «e»ga aylanib ketadi. Masalan: qovurma-qurme, Nadima-nadime va h. k. «A» unlisi so'z boshida kelganda ochiqroq, kengroq talaffuz qilinadi. Masalan: amal-amal, agar-agar va h. k.

So'z o'rtasida, ayniqsa, «y»undoshi va «i» unlisidan oldin o'ta qisqa va tor talaffuz qilinadi. Masalan: nayo-neya (kelma) va naist-neist (turma) shaklida talaffuz qilinadi.

Arab tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlarda «a» tovushi til orqa tovushiga aylanib yopiqroq talaffuz qilinadi: masalan: ta'rix-tarix, ta'min so'zlari kabi.

«O'» unlisi-orqa qator, o'rta ko'tarilgan, lablangan, qisqa tovush bo'lib, o'zbek tilidagi orqa qator «o'» tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. O'zbek tilida fors tilidan farqli ravishda old qator «o'» tovushi ham uchraydi.

«O'» unlisi barcha qisqa unlilar kabi yopiq bo'g'in va urg'usiz bo'g'inlarda o'ta qisqa talaffuz qilinadi.

fors tilida	o'zbek tilida	fors tilida	o'zbek tilida
o'mr	umr	mo'hem	muhim
o'stad	ustoz	tabarro'k	tabarruk
o'sto'xon	ustuxon	xono'm	xonim
bo't	but	xo'rram	xurram
bo'ron	buhron	qo'drat	qudrat
Bo'xoro	Buxoro	go'rji	gurji

9- mashq. Quyidagi so'zlarni yod oling.

go'rbe – mushuk	pedar - ota
abru - qosh	pesar - o'g'il
po - oyoq	do'xtar – qiz
bolopush – palto	sandali – stul, kursi
dar - eshik	zan – ayol
zamin – yer	so'ma – siz
barodar – aka, uka	bam - tom

FORS ALIFBOSI

Forslar VII asrdan boshlab to shu kunga qadar o'z yozuvlarida arab alifbosini ishlatib kelmoqdalar. Arab tili tovushlariga moslashgan va shu tilning tovush sistemasini to'la aks ettira olgan arab alifbosi fors tovushlarini to'la ifodalay olmaydi. Bunga sabab, birinchidan, fors tili fonetik sistemasiga tamoman yot bo'lgan bir necha tovush va belgilarning arab tilidan kirib kelishi bo'lsa, ikkinchidan, fors tilining xususiyatlarini ifoda etuvchi tovushlarning arab tili tovushlari sistemasida bo'lmasligi va ularni yozuvda ifodalovchi ma'lum harflarning arab alifbosida yo'qligi bo'ladi.

Arab alifbosi 28 harfdan iborat bo'lib, forslar o'zlariga xos tovushlarini ifodalash uchun qo'shimcha ravishda quyidagi 4 harfni kiritdilar

گ ژ چ پ

Shunday qilib arab-fors alifbosida 32 harf hosil bo'lgan. Bu harflar asosan 16 belgidan iborat bo'lib, ulardan bir qanchasini ost yoki ustiga bir, ikki va uchtdan nuqta qo'yish orqali ularning soni ko'paytirilgan. Bu belgilar quyidagilar:

ا ب ح د ر س ص ط ع ف ك ل م و ی ه

Bulardan 6 tasi ا ل م و ی ه yangi harf yasash uchun ishtirok etmaydi. Qolgan 10 belgi esa o'zining nuqtali yoki nuqtasizligiga, nuqtalarning o'rni va miqdoriga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

1. ب shaklining tagiga bir nuqta qo'ysak, ب b harfi; ostiga uch nuqta qo'ysak, پ p harfi; ustiga ikki nuqta qo'ysak ت t harfi; ustiga uch nuqta qo'ysak, ث s harfi va bu shaklni cho'ziq emas, yarim doira shaklida yozib, ustiga bir nuqta qo'ysak, ن n harfi hosil bo'ladi.

2. ح shakli o'zi h tovushini ifodalaydi. Ostiga bir nuqta qo'ysak, ح j (dj) harfi; ostiga uch nuqta qo'ysak, چ ch harfi; ustiga bir nuqta qo'ysak خ x harfi hosil bo'ladi.

3. د shaklining o'zi d tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo'ysak, ذ z harfi hosil bo'ladi.

4. ر shaklining o'zi r tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo'ysak, ز z harfi, uch nuqta qo'ysak, ژ j (sirg'aluvchi) harfi hosil bo'ladi.

5. س shaklining o'zi s tovushini ifodalaydi. Ustiga uch nuqta qo'ysak ش sh harfi hosil bo'ladi.

6. ص shaklining o'zi s tovushini ifodalaydi, ustiga bir nuqta qo'ysak ض z harfi hosil bo'ladi.

7. ط shaklining o'zi t tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo'ysak ظ z harfi hosil bo'ladi.

8. ع shaklining o'zi ayn (vaziyatga qarab a, i yoki u tovushlarini bildirishi mumkin) deb atalib, ustiga bir nuqta qo'ysak غ g' harfi hosil bo'ladi.

9. ف shaklining ustiga bir nuqta qo'ysak ف f harfi; bu shakl doirasini chuqurroq yozib, ustiga ikki nuqta qo'ysak, ق q harfi hosil bo'ladi.

10. ك shaklining o'zi k tovushini ifodalaydi. Ustiga uch nuqta qo'ysak, گ g harfi hosil bo'ladi. Bu harf odatda uch nuqta o'rniga bir uzun chiziq qo'yib yoziladi.

Fors grafikasida nuqtalarning o'rni va miqdori katta ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, ularni diqqat bilan kuzatib borish kerak. Chunki nuqtalarni noto'g'ri qo'yish so'zni tushunmaslikka olib keladi yoki ma'noni butunlay o'zgartirib yuboradi.

Agar arab-fors alifbosiga nazar tashlasak, bir tovushni ifodalash uchun fors tilida 2, 3, 4 harf mavjudligini ko'ramiz. Masalan:

Z tovushini ifodalash uchun ظ ض ذ ز

S tovushini ifodalash uchun ص س ث

T tovushini ifodalash uchun ط ت

H tovushini ifodalash uchun ه ح

Yuqoridagi har bir harf arab tilida bir-biridan keskin farq qiladigan tovushlarni ifoda etadi va ularning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu tovushlar fors tiliga arab so'zlari bilan birga kirib kelgach, o'zlarining talaffuz xususiyatlarini yo'qotib, fors tili fonetik qoidalariga moslashgan. Buning natijasida bir tovushni ifodalash uchun bir necha arabcha mustaqil harflar ishlatiladi. Fors tilida bu harflar ifoda etgan tovushlar orasida hech qanday farq yo'q. Lekin fors tili lug'at boyligiga kirgan arab so'zlarida arablar qaysi harfni qo'llagan bo'lsalar, forslar ham shu so'zni yozishda o'sha harfni ishlatadilar.

Fors alifbosidagi hamma harflar yozuvda bir-birlariga qo'shilish yoki qo'shilmasligi jihatidan ikki guruhga bo'linadi:

1. O'zidan oldingi harfga qo'shilib, keyingisiga qo'shilmaydigan harflar.

2. O'zidan oldingi va keyingi harflarga qo'shilib yoziladigan harflar.

Birinchi guruh harflari yettita bo'lib, fors grammatikasida حروف منفصلة ho'ruf-e mo'nfasele (ayrilgan harflar) deb ataladi. Bular quyidagilar: ا alif, د dol, ذ zol, ر re, ز ze, ژ je, و vov.

Bu yetti harfning har biri yozuvda faqat alohida shaklda bo'ladi:

ا د ذ ر ز ژ و

Ikkinchi guruh harflari 25 ta bo'lib, fors grammatikasida حروف متصله ho'ruf-e mo'ttasele (qo'shilgan harflar) deb ataladi.

Ikkinchi guruh harflari o‘zidan oldingi hamda o‘zidan keyingi harflar bilan qo‘shilib yoziladi. Shu sababdan, ikkinchi guruh harflari yozuvda alohida kelishdan tashqari, qo‘shilgan holda va ayin, g‘ayin, hoye havvaz harflarining alohida, so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxiridagi shakllari bo‘ladi. Bu harflarning alohida shakli hech qanday o‘zgarishsiz, alifboda qanday berilsa, shunday yoziladi.

ب پ ت ث چ ج ح خ س ش ص ض ط ظ ع غ ف ق ک گ ل م ن ه ی

Qo‘shilgan holda yozilganda faqat harfning bosh qismi bilan ulanib ketaveradi. Uch xil shakldagi (so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida) harflarning ko‘rinishi birmuncha o‘zgarsa ham, har bir harf o‘z asosiy belgisini yo‘qotmaydi.

حروف منفصله ho‘ruf-e munfaseledan so‘ng harflarning yozilishi

حروف منفصله guruhidagi harflar yettitadir (alif, dol, zol, re, ze, je, vov).

Bu harflar و ژ ز ر ذ ا nastaliq yozuvida asosan bir ko‘rinishda bo‘ladi. Chunki so‘z boshidagi va alohida ko‘rinishlari bir xildir:

و ژ ز ر ذ ا

Bu harflardan beshtasi faqat bir undosh tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi: د (dol) – "d", ذ (zol) – "z", ر (re) – r, ز (ze) – z, ژ (je) – j (sirg‘aluvchi).

Alif va و vov harflarining har biri bir nechtadan harflarni ifodalaydi: و vov – u, o‘, v;

Alif esa harakatlar bilan birgalikda barcha unlilarni ifodalash uchun ishtirok etadi: i, e, a, u, o‘, o.

10- mashq. O‘qituvchidan so‘ng takrorlang:

a) shakk, sheddat, tebbi, sarrof, afzudan, alifbo, nesbat, yekto, nesbatan.

11- mashq. Quyidagi so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing va daftaringizga ko‘chirib yozing:

دود، دوز، رود، وادار، دور، را، داد، ارد، ادا، زار، راز

12- mashq. Quyidagi so‘zlarni arab-fors harflari bilan yozing:

Dur, dud, rud, do‘ur, ruz, zud, doru, roz, dodor

درس یکم BIRINCHI DARS

ا، د، ذ، ر، ز، ژ، و.

Munfasil harflar o‘zidan oldingi harflar bilan ulanib, o‘zidan keyin kelgan harflar bilan ulanmasdan yozilgani uchun faqat bir xil ko‘rinishga ega. So‘z boshida

va alohida kelganda bir xil yoziladi, chunki soʻz boshida kelganda oʻzidan oldin harf kelmaydi. Soʻz ortasida va oxirida esa ozidan oldin kelgan harf bilan ulanib yoziladi. Agar munfasil harflar oʻzaro kelsa, soʻz tarkibidagi barcha harflar alohida yoziladi.

Fors yozuvining bir necha turi mavjuddir. Nasx fors yozuvining bosma turi boʻlib, boshqa yozuv turlaridan doimo aniq va bir xil ifodalanishi bilan farqlanadi. Yozilishi va oʻqilishi aniq va sodda boʻlganligi uchun kitob, gazeta va jurnallarni chop qilishda keng foydalaniladi.

Nastaliq – yozuvning qolyozma turi bolib, kitoblar nashr qilina boshlanguncha asosan shu yozuv turidan keng foydalanilgan. Nastaliq yozuvi bugungi kunda eronliklarning oʻzaro yozishmalarida uchraydi. Devor yozuvlarida, plakatlarda, reklama va shiorlar yozishda nastaliqning shikasta bilan omixtalashgan shakli qoʻllanilmoqda.

Kufa va sols aksariyat hollarda Qurʼonni yozishda, madrasa, masjidlarning gumbaz va peshtoqlaridagi yozuvlarda uchratish mumkin.

Oʻzidan keyingi harf bilan ulanmaydigan harflar


Alohida shakli	Harf nomi	Talaffuzi
ا	alif	Soʻz oʻrtasida va oxirida – O
د	dol	D
ذ	zol	Z – asosan arabcha soʻzlarda uchraydi
ر	re	R
ز	ze	Z
ژ	je	J – arabcha soʻzlarda uchramaydi (sirgʻaluvchi)
و	vov	Soʻz boshida va unlilar orasida – V, undoshlar orasida va soʻz boshida – U, Oʻ, OʻU

Nasx yozuvida baʼzi harflar satrda (ا د ذ), baʼzi harflarning bir qismi satrda qolgan qismi esa satr ostida yoziladi (و ز ژ). Satr chizigʻiga qatʼiy rioya qilib yozish nasx yozuviga xosdir.

Nastaliq yozuvida esa barcha harflar satr chizigʻida yoziladi. Harflarni bir satrda yozish yozuvni chiroyli koʻrsatish bilan birga harflarni bir-biriga yaqin joylashishiga imkon yaratadi.

Oldingi paytlarda fors yozuvida tinish belgilari qoʻyilmagan, nastaliqda soʻzlar orasi ajratib yozilmagan. Bu arab yozuvini oʻrganuvchilarga qiyinchilik tugʻdirgan. Hozirgi paytda barcha tinish belgilari yozuvda ifodalanayapti. Faqat vergul, nuqtali vergul va soʻroq belgilari teskari holda ifodalanayapti.

Arabcha, ruscha va lotincha harflarning kelib chiqish asosi bittadir. Ular eng qadimgi somiy alifbosidan oldingi tasviriy yozuv asosida yaratilgandir. Arabcha alif ruscha „A“ va grekcha „a“ alfa qadimgi somiy tasviriy yozuvdagi alp-



ho‘kizning boshi tasviridan kelib chiqqan. Alif tasviriy yozuvdagi ho‘kiz shoxlarini bir-biriga bog‘lab turuvchi vertikal (tik) chiziq asosida, ruscha va lotincha „A“ ga esa ho‘kiz boshi, tumshug‘i va shoxlarini birlashtirib turuvchi cho‘ziq asosida shakllangan. Dol harfi tasviriy yozuvdagi dalt – eshik va re harfi esa ra’sh – bosh (odamning boshi) tasviri asosida paydo bo‘lgan.

Zol, re, ze harflari esa yuqoridagi harflarga nuqta qo‘yish asosida yaratilgan

Vov harfi tasviriy yozuvdagi waw – ilgak shakli asosida yasalgan. Qadimda ilgakning ikki aylanali va ayri shakllari mavjud bo‘lgan. Aylanali ilgakdan arab yozuvidagi „vov“, ayri ilgakdan yevropa yozuvidagi „v“ ga asos qilib olingan.



13- mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va ko‘chirib yozing.

دانا، دود، □ وادار، رو، راز، رود، زور، دارو، روز، زود.

14- mashq. Fors yozuvida yozing.

Ruz, doro, doru, roz, dodor, dur, zur, vodor, rud, dud, ru, joj, ro, duz.

IKKINCHI DARS درس دوم

harflarining ifodalanishi ب، پ، ت، ث، ن، ی

ب be harfi b tovushini, پ pe harfi p tovushini, ت te harfi t tovushini, ث se harfi s tovushini, ن nun harfi n harfini, ی yo harfi i, y tovushlarini ifodalaydi. Bu harflar shakl jihatdan bir xil yoziladi, faqat nuqtalarning o'rne va miqdori bilan farqlanadi. Bu harflarning ikki xil ko'rinishi bor: alohida, qo'shilgan holda

ن nun va ی yo harflari yuqoridagi harflar bilan so'z boshida va o'rtasida bir xil yozilib, nuqtasi bilan farqlanadi. Qo'shigan holda esa o'ziga xos yoziladi.


qo'sh shakli.	alohi da	talaf-fuzi	nomi
ب	ب	b	be,bo
پ	پ	p	pe
ت	ت	t	te
ث	ث	s	se
ن	ن	n	nun
ی	ی	i, ye	ye, yo

Pe harfi fors tiliga xos harf bo'lib, arab tilida uchramaydi.

Bu harflarning nasxda yozilishi, nastaliqda esa so'z boshidagi va o'rtasidagi ko'rinishlari juda kichik yoziladi. Asosan nuqtasiga qarab qaysi harf yozilganligini ajratamiz.

Arab-fors yozuvida bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirilmaydi. Satrdagi yozuvlar bir xil bo'lishi uchun harflar orasi cho'zilib yoki qisqartirib yoziladi. Cho'zib yozish so'zning o'qilishiga ta'sir qilmaydi. Cho'zib yozish bir satrda bir so'zda uchrashi mumkin. Ikkinchi

satrdagi cho'zib yozilgan so'z birinchi satrdagi so'zning ostigi tushmasligi kerak.



Be harfi eng qadimgi tasviriy yozuvdagi bayt – uy shaklidan, nun esa nun- ilon shaklidan, yo esa yad – qo'lning tasviri asosida yaratilgan.

15- mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va ko'chirib yozing.

با، پاء، نا، دیوار، تا، بازو، زانو، بیدار، بان، بی، بید، تیر، بینی، پیر، دیروز، بابا، بیرون، نیرو، بادبان، زیر.

16- mashq. Fors yozuyida yozing.

Bozor, bi, pir, non, bo, tir, bodbon, yo, divor, dir, zonu, birun, bidor, zir, bini, bobo, bonu, to, po, bozu, to, bid.

واژه ها

bilan	–	bo	با	keksa	–	pir	پیر
tol	–	bid	بید	kech	–	dir	دیر
shamollatgich	–	bodbon	بادبان	devor	–	divor	دیوار

bozor	–	bozor	بازار	kun	–	ruz	روز
bilak	–	bozu	بازو	tizza	–	zonu	زانو
uyg‘oq	–	bidor	بیدار	tez	–	zud	زود
burun	–	bini	بینی	non	–	non	نان
oyoq	–	po	پا	tashqari	–	birun	بیرون
tol-		bid	بید				
Baland tovush-		bon	بان				

UCHINCHI DARS درس سوم

Unlilarning ifodalanishi

Fors tilida 6 ta unli fonema 2 ta diftong mavjud. Bu unlilardan o, i, u cho‘ziq, a, e, o‘ qisqa talaffuz qilinadi. Cho‘ziq unlilar و ی ا harflari bilan ifodalanadi. Qisqa unlilar esa harakatlar bilan ifodalanadi.

Harakatlar

Fors alifbosida undosh tovushlar va cho‘ziq unlilar harflar bilan yoziladi. Qisqa a, e, o‘ unlilarini ifodalash uchun esa harflarning osti va ustiga qo‘yiladigan harakatlar qo‘llaniladi. Odatda, bu belgilar yozuvda har doim qo‘yilavermaydi, yozuvni o‘rganish jarayonida darslik va qo‘llanmalarda, lug‘atlarda, shuningdek, fors tiliga arab tilidan kirgan so‘zlarni qanday talaffuz etilishini ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

Harakatlar

harakatlar	nomi	talaffuzi
◌َ	zabar, fatfa	a
◌ِ	zir, kasra	e
◌ُ	zamma, pish	o‘
◌◌	sukun (to‘xtash)	tovush ifodalamaydi

Yuqorida ketirilgan harakatlar undoshlarning osti va ustiga qo‘yiladi:

- ◌َ belgisi zabar (arabcha – fatha) deb nomlanib ustida, tepasida degan ma‘noni anglatadi. دَر dar – eshik زَرْد zard – sariq
- ◌ِ belgisi zir (arabcha – kasra) deb nomlanib ostida, tagida degan ma‘noni anglatadi. پَدَر pedar – ota, دِرَاز deroz – uzun.
- ◌ُ belgisi pish (arabcha – zamma) deb nomlanib old, oldida degan ma‘noni anglatadi. تُوْند to‘nd – tez, دُوْرد do‘ro‘d – salom.

4. ° belgisi sukun deb nomlanadi. Bu belgi undosh ustiga qo'yilib, shu undoshdan so'ng unli yo'qligini, ya'ni bo'g'inning yopiqqligini bildiradi. دو dav – yugur دی dey – kun.

Diftonglar

Fors tilida ikkita diftong (qo'sh tovush) bor : ey va o'u. Bu diftonglar talaffuz qilinganda, ularni ikki bo'g'inga bo'lib emas, balki birga qo'shib bir butun talaffuz qilish kerak. Bunda diftonglarning birinchi harfi ikkinchisiga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinadi.

1. Ey diftongi o'zbek tilidagi undov so'zi ey yoki inglizcha mey, dey so'zlaridagi diftong tovushlaridek talaffuz qilinadi بين beyn – ora, o'rta.

2. o'u diftongi inglizcha now so'zidagi ow diftongiga solishtirib, to'g'ri talaffuz qilish mumkin. نو no'u – yangi, برو bero'u – bor.

17- mashq. Quyidagi so'zlarni yozing.

پدر، درود، زن، بزر، دراز، پُر، زبان، در، زرد، بد، دندان، دریا، پنیر، تبریز، دی، دور، وی، نو، ری، دو، تو، رادیو، نزد، درد، درود، بدن، بو.

18- mashq. Quyidagi so'zlarni forsha yozing.

Yazd, barodar, deroz, po'r, zabon, zan, do'rud, dandon, daryo, Tabriz, no'v, dey, Rey, pedar, to' tu, do'w, do', bad, panir, nazd, dard.

Unlilarning so'z boshida ifodalanishi

Fors tilidagi barcha unlilar so'z boshida kelsa bir alif orttirilib yoziladi. O unlisi so'z boshida alif ustiga qo'yiladigan madda □ (arabcha – cho'zilgan) orqali ifodalanadi. So'z o'rtasida va oxirida madda tushib qoladi. آوردن ovardan – keltirmoq.

Talaffuzi	yo'zishi	talaffuzi	yo'zishi
a	آ	o	ا
e	اِ	i	ای
o'	اُ	u	او
ey	ای	o'u	او

Misollar: ابرو abru –

qosh, اداره edore – idora,

اروپا O'rupa – yevropa,

آرد ord – un

ایران , Iron – Eron

u – u, ایوان eyvon – ayvon.

19- mashq. Quyidagi so'zlarni yozing va o'qing.

آن، آب، او، ایران، این ایرانی، اوت، از، آباد، آبان، آذر، ابرو، ابراز، اروپا، ایوان، آبدار، اداری.

Sin va shin harflari

Sin va shin tovushlari o‘zbek tilidagi s, sh tovushlari kabi talaffuz etiladi. Sin, shin harflari uncha katta bo‘lmagan tishlarning bir-biriga ulanishi, alohida ko‘rinishda esa tishlardan so‘ng nunga o‘xshash katta aylana bilan tugaydi.

qo‘sh. hol	olohida	talaffuz	nomi
س	س	s	sin
ش	ش	sh	shin

Nastaliq yozuvida sin va shin harflari tishlarsiz cho‘ziq chiziq bilan ifadalanadi. Shin harfi tasviriyl shakldagi yozuvning shinn – tish deb nomlangan

tasviridan kelib chiqqan. Sin harfi esa shin harfi asosida yasalgan.



20- mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va yozing.

شب، اسب، پسر داداش، شیراز، دیشب، شیراز، آش، سبز، استاد، آسمان، استان، شیرین، سیب، آشنا، دوست، شش، درست، آسیا، شتر، پسر، ساز، سی.

21- mashq. Quyidagi so‘zlarni fors yozuvida yozing.

Oshno, pesar, sabz, do‘ro‘st, dust, sar, ustod, oson, Osiyo, sho‘to‘r, dishab, sir, asotid.

Ot kesimli sodda gap

Fors tilida gapning eng sodda turi ot kesimli sodda yig‘iq gapdir. Bunday gaplar ikki qismdan iborat bo‘ladi. Ot kesim ot, sifat son, ravish va olmoshlar bilan ifodalanib, o‘zidan so‘ng است ast bog‘lamasini olib keladi. Bog‘lama kesimni shakllantiradi. Ast bog‘lamasi o‘zbek tilidagi kesimlik qo‘shimchasi – dir ga to‘g‘ri keladi.

Fors tilida bog‘lama ot kesimlarni shakllantiruvchi belgi bo‘lganligi uchun, gapda tushib qolishi mumkin emas, aks holda gap aniqlovchili so‘z birikmasiga aylanib qoladi.

این بازو است

in bozu ast - Bu bilakdir

آن شیر است

on shir ast – U sutdir

O‘zbek tilida kesimlik qo‘shimchasi – dir tushib qoladi, bu holda kesimlik ohang bilan ifodalanadi. Bu kitobdir. Bu – kitob.

Ast bog‘lamasi oldingi so‘z bilan birgalikda talaffuz etiladi va urg‘u olmaydi. Urg‘u kesimning ot qismiga tushadi.

این دیوار است in divor ast – bu devordir

این سیب است in sib ast – bu olmadir

Ast bog‘lamasining bo‘lishsizlik shakli ast dan oldin na inkor yuklamasini keltirish bilan yasaladi. Bunda ikki a assimilatsiyaga uchrab i ga aylanadi:

na+ ast = nist نه + است = نیست
 این پتو نیست in patu nist – bu odeyal emas
 آن در نیست on dar nist – bu eshik emas

22- *mashq*. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va ko‘chirib yozing.

این پسر است. این سیب است. این نان و پنیر است. آن آب است. آن شیر است، آن پتو زرد است. آن دیوار سبز است. آن زن است. او استاد است. ساسان با شاپور دوست است. این در است. این زبان آسان است. دُرُست است. او نیز ایرانی است. آن پتو نُو است. این زانو است. این بازو است. این بینی است. آن پیشانی است. این رادیو است. این رادیو نُو است. آن آسیا است.

23- *mashq*. Quyidagi gaplarni fors yozuvida yozing.

Bu ayol eronlikdir. Bu bola eronlikdir. Bu olmadir. Bu olma suvlidir. U oltita olma suvlidir. U non bilan pishloqdir. U suvdir. Bu suv va sutdir. Soson Shopur bilan dustdir. Bu til osondir. U til ham osondir. Bu ayol o‘qituvchidir. U Yevropa, bu esa Osiyodir. Bu eshik ko‘kdir. U devor sariqdir.

واژه ها

eshik	– dar	در	suv	– ob	آب
to‘g‘iri	– do‘ro‘st	درست	suvli	– obdor	آبدار
qo‘l	– dast	دست	oson	– oson	آسان
ikki	– do‘	دو	Osiyo	– osiyo	آسیا
do‘st	– dust	دوست	tanish	– oshno	آشنا
rus	– rus	روس	u (ko‘r.o.)	– on	آن
til	– zabon	زبان	qosh	– abru	ابرو
sariq	– zard	زرد	Yevropa	– o‘rupo	أروپا
ayol	– zan	زن	ot	– asb	اسب
yashil	– sabz	سبز	o‘qituvchi	– ustod	أستاذ
bosh	– sar	سر	u (kish. o.)	– u	او
olma	– sib	سیب	eronlik	– ironi	ایرانی
olti	– shesh	شش	bu	– in	این
sut	– shir	شیر	odeyal	– patu	پتو
shirin	– shirin	شیرین	bola (o‘g‘il)	– pesar	پسر
yangi	– no‘w	نُو	pishloq	– panir	پنیر
ham	– niz	نیز	peshona	– pishoni	پیشانی
aniqlash	– ebroz	ابراز	tana (odam)	– tan	تن

Hoye havvaz ه va mim م harflari


Hoye havvaz asosan “h” undosh harfini ba’zan so‘z oxirida „e“ unli harfini ifodalaydi. Hoye havvaz to‘rt ko‘rinishga ega: ه ه ه ه

so‘z oxiri.	so‘z o‘rtasi.	so‘z boshi.	alohida	talaffuzi.
ه	ه	ه	ه	h

He harfining so‘z boshidagi, o‘rtasidagi ko‘rinishida bir chiziq harfning o‘rtasidan o‘tib o‘zidan keyingi harfga ulanadi. Shunda "h" harfida ikki ko‘z hosil bo‘ladi. Shuning uchun fors tilida bu harfni های دو چشم " hoye do‘ cheshm" (ikki ko‘zli he) deb atashadi.

Nastaliq yozuvida hoye havvaz so‘z boshida bir tish ostida vergulga o‘xshash belgi qo‘yish bilan, so‘z o‘rtasida faqat satr ostida, so‘z oxirida esa satr chizig‘ida yoziladi.

Hoye havvaz harfi („a“ shakl) eramizdan oldingi ikki minginchi yillarda misr ieroglifi asosida („b“ shakl) yaratildi. Eramizdan oldingi birinchi ming yillikda shakli o‘zgarib shimoloy – somiy yozuvida („B“– shakl) shakliga ega bo‘ladi. Keyingi o‘zgarishlar asosida lotincha „E“ harfi paydo bo‘ladi (r – shakl). Somiy alifbosida esa „h“ tovushini ifodalaydi.



Yunonlar bu harfni „e“ unli harfini ifodalashga moslashtiradilar.

24- mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va yozing.

سیاه، بهار، ناهار، شهر، تهران، آنها، ده، واسه، پیراهن، هوا، راهرو، نهار، واژه، به، اینها، تشنه، راه، هر، بهتر، آهن، نشانه.

25- mashq.Quyidagi so‘zlarni fors yozuvida yozing.

Deh, shahr, Tehron, havo, onho, pirohan, rohro‘u, nahor, teshne, nevisande, siyoh, roh.

م Mim harfi

Mim harfi o‘zbek tilidagi "m"harfini ifodalaydi. Bu harf har ikki tomondan ulanib yoziladigan harflar sirasiga kirganligi uchun to‘rt xil ko‘rinishga ega. Mim harfining so‘z boshidagi ko‘rinishi hoye havvazga o‘xshab ketadi. Bu harfni yozishda satr chizig‘idagi soat harakatiga teskari yoziladigan bir aylana bo‘lib, o‘zidan keyingi harfga qo‘shiladigan element chap tarafga chiqariladi.

Qo‘sh. Hol.	alohida	talaffuzi
م	م	m

26- mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va yozing.

مرد، شهر، من، شما، شام، مداد، اسم، مردم، همیشه، زمین، مهر، مُرداد، همان، آسمان، ده، هشت،

سه، نه، ميز، مهندس، شناس، مادر، ميدان، ميوه، امشب، همين، امروز، مهتاب، مسموم.

Mim harfi eng qadimgi somiy tasviri yozuvdagi maw – suv belgisidan kelib chiqqan.



27- **mashq**. Quyidagi soʻzlarni fors yozuvida yozing.

Se, havo, hasht, hammom, hamin, miz, moʻhandes, mard, emshab, mahtob, deh, noʻh, modar, mehrabon, osmon, medod, zaminshenos, siyoh, sard, hamishe, dah, sharh, roʻushan.

28- **tamrin**. Quyidagi gaplarni forsha yozing va oʻqing.

In se miz siyoh ast. In mard zaminshenos ast. On zan moʻhandes ast. Emshab mahtob ast. U hamishe mehrebbon ast. In dah medod siyoh ast. On deh az shahr dur ast. Osmon roʻushan ast. In hasht pirohan noʻv ast. Emruz havo sard ast. In noʻh pirohan zard ast.

29- **tamrin**. Quyidagi gaplarni forschaga oʻgiring.

Bu uchta qalam koʻkdir. Bugun havo savuqdir. Tabriz Tehrondan uzoqdir. Bu koʻylak qoradir. U ikkita odayalo yangidir. Osmon yoriqdir. Dahliz uzundir. U ayol yershunisdir. Bu kishi – yozuvchi. Bu bola tashnadir. Suv sovuqdir. Devor sariqdir. U eroniydir. U kishi bu ayol bilan tanishdir. Mevalar shirin va suvlidir. Bu oltita stol qoradir. U oʻnta qalam koʻkdir.

Bogʻlamaning tuslanishi

Fors tilida است ast bogʻlamasining toʻliq va qisqa shakli mavjuddir. Uning toʻliq shakli suxondonlar nutqida, notanish kishilarga murojaat qilganda va bogʻlamaga logik urgʻu tushganda qoʻllaniladi.

Ot kesimli gaplarda ega qaysi shaxs va sonda boʻlsa kesim unga moslashadi. Bunda bogʻlama است ast III shaxs birlikdan tashqari barcha shaxslarda هست hast soʻzi bilan almashinadi.

Yershunosmiz – mo zamenshenos hastim مازمینشناس هستیم

Soʻzlashuv uslubida bogʻlamaning qisqa shakli qoʻllanilib, ot kesimga qoʻshilib yoziladi.

Men oʻqituvchiman – man doneshyoram من دانشیارم

Bogʻlamaning toʻliq shakli tustlanganda shaxs-son qoʻshimchalarini oladi. Boʻlishsizlik shaklida esa هست hastdan oldin نه na inkor yuklamasi keladi.

hastim, nistim	هستیم، نیستیم	hastam, nistam	هستم، نیستم
hastid, nistid	هستید، نیستید	hasti, nisti	هستی، نیستی
hastand, nistand	هستند، نیستند	hast, nist	هست، نیست

30- **mashq**. Quyidagi gaplarni oʻqing va koʻchirib yozing.

من تشنه هستم. تو با ساسان دوست هستی. آسمان پر از ستاره است. ما نویسنده هستیم. شما روس هستید. آنها مهندس هستند. راهرو دراز است. من با ساسان آشنا هستم. شما نویسنده هستید. ما مرد هستیم. آن دیوار نیست. او استاد نیست. شما نویسنده نیستید. آنها دوست نیستند. این نان نیست. من ایرانی نیستم. این زبان آسان نیست. – نه، این زبان آسان است. امشب هوا سرد نیست. – نه، هوا سرد است. آنها مهندس نیستند. – نه آنها مهندس هستند. ما با آنها آشنا نیستیم. – نه، آشنا هستیم.

Ot kesimli so‘roq gaplarning yasalishi

Fors tilida so‘roq gaplar talaffuz, so‘roq olmoshlar, so‘roq yuklamalar orqali yasaladi.

1. Talaffuz orqali yasalgan so‘roq gaplarda gap tartibi darak gapdek bo‘ladi. Faqat jumla oxiri kuchli talaffuz qilinadi.

این دیوار زرد است؟ in devor zard ast? – bu devor sariqmi?

2. Ke va چه che so‘roq olmoshlari bilan yasaladi.

این کیست؟ Bu kim – in kist

این چیست؟ Bu nima – in chist

3. Gap boshiga آیا oyo va مگر magar (–mi) so‘roq yuklamalarini keltirish orqali yasaladi.

آیا ما آشنا هستیم Biz tanishmizmi? – oyo mo oshno hastim

مگر این دوست است؟ Nahotki bu do‘st bo‘lsa? – magar in dust ast?

31- mashq. Quyidagi so‘zlarni talaffuziga e’tibor berib o‘qing va yozing.

آیا شاپور با ساسان دوست است؟ آیا این سیب شیرین است؟ این دیوار زرد است؟ این پنیر است؟ این آب است یا شیر؟ شما نویسنده هستید؟ آنها روس هستند؟ آیا ما آشنا هستیم؟ آیا تو استاد هستی؟ آیا این زبان شیرین است؟ آیا امشب هوا سرد است؟

Bog‘lama mustaqil leksik ma’no ham ifodalaydi. Bunda hast – bor, mavjud ma’nolarini bildiradi.

این مهندس در تبریز است in mo‘handes dar tabriz ast – Bu muhandis Tabrizdadir.

من امروز در میدان هستم. man emruz dar meydon hastam – Men bugun maydondaman.

32- mashq. Quyidagi gaplarni o‘qing va yozing.

این مهندس در یزد است. آن زن در شیراز است. ما در یزد هستیم. شما در تهران هستید. آنها در آبادان هستند. من در ایوان هستم. تو در میدان هستی. آن مهندس در تهران است. شما در این شهر هستید. ما در ده هستیم. تو در راهرو نیستی. این مهندس در تبریز است.

daste sho‘mo dard nako‘nad – Katta rahmat دست شما درد نکند

واژه ها

olma	– sib	سیب	obodon	– obodon	آبادان
siz	– sho‘mo	شما	oson	– oson	آسمان
shahar	– shahr	شهر	ular	– onho	آنها
shiroz	– shiroz	شیراز	-mi (so‘r.yuk.)	– oyo	آیا
biz	– mo	ما	-dan (kel.qo‘sh)	– az	از
qalam	– medod	مداد	bugun	– emruz	امروز
ona	– modar	مادر	bu kecha	– emshab	امشب
mard, kishi	– mard	مرد	Eron	– Iron	ایران
zaharlangan	– masmum	مسموم	ga(kel.qo‘sh)	– be	به
mamnun, xursand	– mamnun	ممنون	to‘la	– po‘r	پر
oydin (tun)	– mahtob	مهتاب	yulduzli	– po‘rsetore	پرستاره
mehribon	– mehrabon	مهربان	tashna	– teshne	تشنه
muhandis	– mo‘handes	مهندس	tabriz(er,sha)	– tabriz	تبریز
maydon	– meydon	میدان	tehran	– tehran	تهران
stol	– miz	میز	uzun	– deroz	دراز
meva	– mive	میوه	qo‘l	– dast	دست
yo‘zuvchi	– nevisande	نویسنده	o‘n	– dah	ده
yo‘q	– na	نه	qishloq	– deh	ده
to‘qqiz	– no‘h	نه	dahliz	– rohro‘u	راهرو
sakkiz	– hasht	هشت	ravshan	– ro‘ushun	روشن
o‘sha	– hamon	همان	yershunos	– zaminshenos	زمینشناس
hamisha	– hamishe	همیشه	yulduz	– setore	ستاره
shu	– hamin	همین	sovuq	– sard	سرد
havo	– havo	هوا	uch	– se	سه
Uchun	– vose	واسه	qora	– siyoh	سیاه

BESHINCHI DARS درس پنجم

Ch, J va X undoshlari

"Ch" va "J" tovushlari til oldi qorishiq tovushidir. Ch – jarangsiz, J – jarangli bo‘lib, o‘zbek tilidagi "Ch" va "J" harflari kabi talaffuz qilinadi. X – jarangsiz, sirg‘aluvchi chuqur til orqa tovushi. O‘zbek tilidagi "X" kabi talaffuz etiladi.

Jim, chim, he, xe, harflarining yozilishi

Bu to‘rt harf bir xil shaklda yoziladi. Faqat nuqtalarining o‘rni va miqdori bilan farqlanadi. Bosma va yozma shakllari o‘zidan oldingi harf bilan ulanishidan farq qiladi. Bosma (nasx)da yozilganda harflarning shakli o‘zgarmaydi. Bunda qalam qog‘ozdan uzib yoziladi. Yozmada(nastaliqda) qalam qog‘ozdan uzilmasdan bir-biriga ulanib yoziladi.

Qo‘sh. Hol.	alohida	o‘qil.	nomi
ج	ج	j	jim
چ	چ	ch	chim
ح	ح	h	he
خ	خ	x	xe

Bosma shaklining ulanishiga misollar
 حجاج hujjoj – haj qiluvchilar, حجم hajm
 – hajm چرخ charx – g‘ildirak, خرج
 xarj – sarf, xarajat.

ح Hoiy hutti harfi arab tilidan kirib
 kelgan "h" tovushini ifodalaydi. Yuqori
 bug‘iz undosh tovushi bo‘lib “x”
 tovushidan yumshoq talaffuz qilinadi.

Mazkur harflarning yozilishiga jim harfi asos qilib olingan. Jim harfi qadimgi
 somoy tasviriy yozuvdagi qaml – tuya tasviridan
 yasalgan. Kirill yozuvida “T” shu asosida shakllagan.
 Chim, haye hutti, xe harflari esa jim asosida paydo
 bo‘lgan.

33- **mashq.** Quyidagi so‘zlarni o‘qing va yozing.
 آنجا، دانشجو، چاپ، اینجا، چپ، چوپ، چتر، چشم، چه، چای، چی، دختر، تخته،
 جا، سُرخ، خیر، نَخیر، پَنج، حِزب، جوان، چَهار، چرا، نَخ، یَخ، دَانِش، پُخته.

34- **mashq.** Quyidagi so‘zlarni fors yozuvida yozing.
 Doneshju, onjo, jahon, do‘xtar, taxte, so‘rx, javon, chor, choy, chahor, xone,
 xub, ho‘joj, hezb, xarj, xeyr, chi, jo, jon, injo.

ضمایر متصله Egalik affikslari (zamoyere mo‘ttasele)

Fors tilida egalik affikslari otlarning oxiriga qo‘shilib narsaning qaysi shaxsga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Bu affikslar o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan birga bir so‘z tarzida talaffuz qilinadi.

Egalik affikslari

جمع	ko‘plik	مفرد	birlik	shaxs
مان	emon	م	am	۱
تان	eton	ت	at	۲
شان	eshon	ش	ash	۳

Egalik affikslari urg‘u olmay, balki undandan oldingi bug‘inga tushadi.

modaram – onam, modarat – onang, modarash – onasi ,
modaremon – onamiz, modareton oangiz, مادرشان
modareshon – onalari.

Egalik affikslarining imlosi

1. Egalik affikslari undosh bilan tugagan otlarga qo‘shib yoziladi va bir so‘z kabi talaffuz qilinadi. **کتابم** ketobam – kitobim, **دوستم** dustam – do’stim.

2. Soʻz "e" qisqa unlisi yoki "i" choʻziq unlisi bilan tugagan boʻlsa, egalik affikslari oldidan birlikda ¹ alif, koʻplikda esa ² hamza belgisi qoʻyiladi. Talaffuzda birlikda ot bilan egalik orasida kichik pauza, koʻplikda esa bir "y" tovushi orttiriladi.

خانه xoneash – uyi, خانه ات xoneat – uying, خانه ام xoneam – uyim, خانه شان xoneyeshon – uyingiz, خانه تان xoneyeton – uyimi, خانه مان xoneyemon – uylari.

3. Soʻz "o" yoki "u" choʻziq unlilari bilan tugasa egalik affikslari oldidan bir "y" orttiriladi. رويم ruyam – yuzim, رويت ruyat – yuzing, رويش ruyash – yuzi. رويمان ruyemon – yuzimiz, رويتان ruyeton – yuzingiz, رويشان ruyeshon – yuzlari.

Egalik affikslarining imlosi

Undosh. so‘ng	"e" va "i" unlisi. so‘ng	"o" va "u" unlisi. so‘ng
م am	ام am	يم yam
ت at	ات at	يت yat
ش ash	اش ash	يش yash
مان e mon	ءمان yemon	يمان yemon
تان e ton	ءتان yeton	يتان yeton
شان eshon	ءشان yeshon	يشان yeshon

35- mashq.

Quyidagi gaplarni
o'qing va yozing.

پنجره شان باز
است. جانه ام اينجاست.
مادرت مهندس است؟
پنجره مان باز نيست.
پدرش در تهران است.
بسر تان تشنه است؟

دخترتان خانه نیست. پسرمان زمینشناس است. آشنایشان نویسنده است. پیراهنم سبز است. میزت سیاه است. دوستان در تهران است. پتویشان نُو است؟ اُستادشان ایرانی است. مادرم مهربان است. این نویسنده در مشهد است. خانه مان بد نیست. این چهار تا مدادتان سرخ است. پنج تا سیب‌تان آبدار است. چرا یسرتان خانه نیست.

36- mashq.Quyidagi qaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Mening qizim mehribon. Sizning tanishingiz yozuvchi. Mening do‘stim yershunosdir. Bizning uyimiz yomon emas. Sening tanishing muhandisdir. Siz mening akam bilan do‘tmiz? Ularning o‘qituvchisi uyida yo‘q. Bu ko‘ylak yangidir. Bu bizning derazamiz. Mening opam talabadir. Sizning dahlizingiz uzundir. Sening eronlik talabang Mashhadda. Sizning talabangiz dahlizdadir. Mening xatim shu erda.

Uning qizi uyda. Uning derazasi ochiqdir. Bizning shahrimiz yaxshidir. Sening otang o'qituvchi.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li

Fors tilida fe'l lug'atlarda doimo masdar shaklida beriladi. Fe'lning bu shakli shaxs, son va zamon ma'nolarini bildirmagani uchun fe'lning noaniq (masdar) shakli deb ataladi. Masdar fe'lning otga yaqin shakli bo'lib, ham fe'llik, ham otlik belgilariga ega. Masdarning fe'llik belgisi harakat, holat, o'timli – o'timsizlik, boshqa so'zlarni boshqarish bo'lsa, uning otlik belgilari esa otlar singari turlanishi va gapda ot bajargan sintaktik vazifalarni bajarishidir.

Forscha fe'llarning masdar shakli doimo دن – dan (unlilar va jarangli undoshlardan so'ng تن – tan, jarangsiz undoshlardan so'ng یدن – idan) bilan tugallangan bo'ladi:

نوشتن naveshtan – yozmoq, دیدن didan – ko'rmoq, پرسیدن po'rsidan – so'ramoq.

Fors tilida har bir fe'l ikki (hozirgi va o'tgan zamon) o'zakka ega bo'ladi.

Masdar shaklidagi fe'ldan o'tgan zamon fe'l o'zagini yasash uchun ن – an qismi tushirib qoldiriladi. Masalan, دیدن didan – ko'rmoq, رفتن – bormoq.

Hozirgi zamon fe'l o'zagining yasalishi birmuncha murakkab bo'lib, ma'lum bir qoidaga buysunmagan halda yasaladi. Lo'g'atlarda fe'lning masdar shaklidan so'ng qavs ichida fe'lning hozirgi zamon o'zagi beriladi. رفتن raftan – رو ru bormoq آمدن omadan آ o" kelmoq, دیدن didan بین bin ko'rmoq. دادن dodan ده deh bormoq.

Ba'zi یدن – idan, ادن – odan bilan tugagan fe'llardan, shu qismini tushirib qoldirish bilan hozirgi zamon fe'li o'zagi yasaladi. باریدن boridan بار bor – yog'moq, نامیدن nomidan نام nom – atamoq, ایستادن istodan ایست ist – turmoq, to'xtamoq.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li hozirgi zamon fe'l o'zagiga می -mi old

جمع koplik	مفرد birlik	shaxslar
یم – im	ام – am	1
ید – id	ی – i	2
ند – and	د – ad	3

qo'shimchasini va so'z oxiriga shaxs-son qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Hozirgi-kelasi zamon fe'lga bosh urg'u می -mi old qo'shimchasiga tushadi.

Hozirgi zamon fe'l negiziga qo'shiladigan shaxs-son qo'shimchalari
Shunday qilib, hozirgi-kelasi zamon fe'li Quyidagicha tuslanadi.

مفرد	birlik	جمع	ko'plik
میروم	mirvam – borayapman	میرویم	miravim – borayapmiz
میروی	miravi – borayapsan	میروید	miravid – borayapsiz
میرود	miravad – borayapti	میروند	mirvand – borayapti

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining bo'lishsizlik shakli fe'l o'zagi oldiga نه – na inkor yuklamasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Bunda asosiy urg'u نه – na inkor yuklamasiga tushadi.

نامیروم	namiravam – bormayapman	نامیرویم	namiravim – bormayapmiz
نامیروی	namiravi – bormayapsan	نامیروید	namiravid – bormayapsiz
نامیروند	namiravad – bormayapti	نامیروند	namiravand – bormayapdilar

Hozirgi zamon fe'l negizi cho'ziq unli "o" yoki "u" bilan tugasa, shaxs-son qo'shimchalaridan oldin "yo" orttirilib yoziladi.

□ آمدن omadan (o) – kelmoq

من می آیم	man mioyam,	تو می آیی	to' mioyi,	او می آید	u mioyad,
ما می آییم	mo mioyam,	شما می آید	sho'mo mioyid	آنها می آیند	onho mioynad

Hozirgi-kelasi zamon fe'li quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Ish-harakatning hozir gapirilib turgan paytning o'zida bajarilayotganligini bildiradi. دانشجو از استاد چیزی میپرسد. doneshju az ustod chizi mipo'rsad – talaba o'qituvchidan nimadir so'rayapti.

2. Doimiy bo'lib turadigan ish-harakatini bildiradi.

من هر روز روزنامه می خوانم man har ruz ruznoma mixonam – men har kuni gazeta o'qiyman.

3. Kelasi zamon ma'nosini anglatib, ish-harakatni kelasi zamonda bajarilishini bildiradi. امشب اینجا می ایم emshab injo mioyam – bu kecha bu yerga kelaman.

37- **mashq**. Quyidagi so'zlarni yozing va o'zbek tiliga tarjima qiling.

خواهرم روزنامه می خواند. برادرمان نامه می خواند. خواهرت به تو چتر می دهد. استادمان به ما روزنامه می دهد. در مشهد باران می بارد. ما چتر داریم. احمد پنج تا سیب دارد. حسن پنج تا سیب دارد. امروز دوستم به خانه ام می آید. امروز پدر و مادرمان از مشهد می آیند. امشب آشنایم از تبریز می آیند. چرا به خانه ام نمی آیی. دانشجویان اینجا چیزی می نویسند. من نامه می نویسم. پسر پسته می خورد. تو انار می خوری. من چایی می خورم. دخترم جوراب می پوشد. پسرم پیراهن می پوشد. شما از من چیزی نمی پرسید. دانشجو از استاد چیزی می پرسد. من می دانم: این زبان آسان نیست. من می دانم: پنجره اش اینجاست.

So‘zlashuv uslubi

Forslarda so‘zlashuv bilan kitobiy uslub bir-biridan farq qiladi. Eronliklar telefon orqali so‘zlashganda doimo so‘zlashuv uslubida gaplashadilar. Yozuvda esa doimo kitobiy uslubni ishlatadilar.

So‘zlashuvda ba’zi harflar o‘zgaradi. Cho‘ziq unli "o" burun tovushlari "m, n" dan oldin kelsa "u" harfiga almashadi. *اونجا – onjo – unjo uerda–, می خوانم می* xone – xune – xona, midoni – miduni – bilasan, javon – javun – yosh, bom – bum bom, tamom – tamum. Jumla oxiriga keladigan ast bog‘lamasi va 3- shaxs birlik qo‘shimchasi –ad "e" kabi talaffuz qilinadi. *درست است. Do‘ro‘st ast– درست می پوشد, do‘ro‘st-e to‘g‘iri, می پوشد* mipushad – *می پوشه – kiyadi.*

38- mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va yozing.

هر روز باران میبارد. دُرُسته؟ چتر داری؟ احمد چتر داره. برادرتون چی می خونه؟ روزنامه می خونه. خواهرشون چی می خوره؟ خواهرشون چایی میخوره. نمی دونی: این جوون دانشجوه؟ نه، این جوون مهندسه. خونه تون حموم هست؟ ما خونه مون رادیو داریم. پنجره شون بازه؟ نه، پنجره شون باز نیست. روسی آسونه. دُرُسته؟

Salomlashishning oddiy shakli

Eronliklarda salomlashish obobi juda rivojlangan. Ular "salom aleyko‘m" so‘zidan so‘ng albatta sog‘ligi, ishlari haqida so‘raydi. Suhbat qanchalik xushmuomalali bo‘lsa, shunchalik so‘roq gaplar ko‘p bo‘ladi. Suhbatdoshlar bir vaqtning o‘zida bir-biriga savollar beradilar, so‘ng minnatdorchilik bildiradilar. Eronda keng tarqalgan so‘rashish Quyidagicha: Holetun xube? ahvollaringiz yaxshimi? minnatdorchilik sifatida "Xeyli mamnun" katta rahmat deb javob beriladi. Hozirgi paytda Eronda "Mersi" rahmat so‘zi ham ishlatiladi.

navbati	1- so‘hbatdosh	2- so‘hbatdosh
(birinchi so‘hb.)	– Salom aleyko‘m	
(ikkinchi so‘hb.)		Salom aleyko‘m
(ikkalasi bir vaqtda)	Holetun xube?	Holetun xube?
(ikkalasi bir vaqtda)	Xeyli mamnun?	Xeyli mamnun?

39- mashq. Quyidagi zarbo‘lmasalni eslab qoling.

دانا داند و پرسد و نادان نداند و نپرسد. dono donad-u po‘rsad va nodon nadonad–u napo‘rsad. Dono biladi va so‘raydi, nodon bilmaydi va so‘ramaydi.

واژه ها

soyabon	– chatr	چتر
nimauchun	– chero	چرا
to‘rt	– chahor	چهار
nima	– chi	چی
nimadir	– chizi	چیزی
uy	– xone	خانه
uyqu	– xob	خواب
o‘qimoq	– xondan (xon)	خواندن(خوان)
opa, singil	– xohar	خواهر
yaxshi	– xub	خوب
yemoq, ichmoq	– xurdan (xur)	خوردن(خور)
bermoq	– dodan (deh)	دادن(ده)
dono	– dono	دانا
ega bo‘lmoq	– doshtan (dor)	داشتن(دار)
bilmoq	– donestan (don)	دانستن(دان)
talaba	– doneshju	دانشجو
qiz	– do‘xtar	دختر
gazeta	– ruznoma	روزنامه
qizil	– so‘rx	سرخ
nodon	– nodon	نادان
maktub	– noma	نامه
yo‘q	– naxyer	نخیر
har	– har	هر

kelmoq	– omadan(o)	آمدن
u er	– onjo	آنجا
osmon	– osmon	آسمان
ruxsat,ijozat	– ejoze	اجازه
ahmad	– Ahmad	احمد
ammo	– amma	اما
buer	– injo	اینجا
yog‘moq	– boridan	باریدن
ochiq	– boz	باز
yomon	– bad	بد
aka,uka	– barodar	برادر
ota	– pedar	پدر
ota –ona	–pedaru modar	پدرو مادر
so‘ramoq	– po‘rsidan (po‘rs)	پرسیدن(پرس)
pista	– peste	پسته
bash	– panj	پنج
deraza	– panjare	پنجره
kiymoq	– pushidan (push)	پوشیدن(پوش)
ta(dona)	– to	تا
yosh, juvon	– javon	جوان
paypoq	– jurob	جوراب
choy	– choy	چای
yoymoq	– naveshta	نوشتن

گ Kof va گ gof harflari ك

Kof va gof harflarining shakli bir-biriga o'xshash. Ular bir-biri bilan yuqori qismiga qo'yiladigan bir chiziq bilan farqlanadi. ك kof harfining yuqori qismiga bir chiziq, گ gof harfida esa ikki chiziq qo'yiladi. Kof harfi "k" tovushini, gof harfi esa "g" tovushini ifodalaydi. Gof "g" tovushi arab tilida uchramaydi, bu harfni forslar kof "k" asosida yasaganlar.

Kof va gof harflari quyidagicha yoziladi

so'z boshi.	alohida	talaffuzi
ك	ك	k
گ	گ	g

ك Kof va گ gof harflari ا alif, ل lom harflari bilan kelganda ba'zi o'zgarishlar ga uchraydi.

ك = ا + ك k + o = ko كاج koj – ish کار kor – ish

گ = ا + گ g + o = go گاو gov – qora mol گاری gori – arava

Arabcha kof va yevropacha „k“, harflari qadimgi somiy tasviriy yozuvdagi kapp – kaft tasviri asosida hosil bo'lgan.

40- tamrin. Quyidagi so'zlarni yozing va o'qing.

کوچک، کتاب، گچ، کارخانه، کجا، بزرگ، یک، گرم، دیگر، سگ، گردش، گردن، دانشگاه، دانشکده، گربه، گاو، گاهی، کار، کبوتر، گوش، سیگار، زندگی، کمک، گرسنه، دیگ، کارد، اگر، گریه.

41- tamrin. Quyidagi so'zlarni forscha yozing va o'qing.

Sag, digar, gardesh, yek, garm, kor, kardan, bo'zo'rg, kuchek, doneshgoh, doneshkade, go'rbe, korxone, ko'jo, gov, gohi, gush, ketob, sigor, gach, zendegi, ko'mak, dig, kord, go'ro'sne.

Qo'shma fe'llar

Fors tilida sodda fe'llar bilan bir qatorda qo'shma fe'llar ham qo'llaniladi. Ot yoki sifat va ko'makchi fe'llar bilan yasalgan fe'llar qo'shma fe'llar deyiladi. Qo'shma fe'llar tarkibiga kirgan sodda fe'llar o'z leksik ma'nolarini yo'qotib, ko'makchi vazifasini bajaradi. Qo'shma fe'llar bir sintagma holatda, so'zlar orasi pauzasiz to'xtam), bir urg'u bilan talaffuz qilinadi.

درس خواندن kor kardan– ishlamoq dars xondan – o'qimoq.

Bo'lishli gaplarda urg'u qo'shma fe'llarning ot qismiga, bo'lishsiz shaklli fe'llarda esa kuchli urg'u inkor yuklamaga, ikkinchi kuchsiz urg'u esa shaxs-son qo'shimchalariga tushadi.

dars درس نمی خوانم kor nemiko'nam- ishlayapman کار نمی کنم
nemixonam- o'qimayapman.

42- tamrin. Quyidagi gaplarni o'qing va yozing.

ما در ترمذ زندگی می کنیم. برادرم در تاشکند زندگی می کند. او در تهران کار می کند. تو به دوستت کمک نمی کنی. هر روز با پسرم گردش می کنم. شما در دانشگاه درس می خوانید. امروز ما استراحت می کنیم. از اُزبکی ترجمه می کنیم. دُخترَم با سَگش گردش می کند. من سگ ندارم. کارد اینجاست. این کارخانه کجاست؟ من سیگار نمی کشم.

43- mashq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qilib yozing.

Men Termiz shahrida yashayapman. Mening do'stim Tehronda yashayapti. Mening tanishim Toshkent shahrida yashaydi. Sen Tabrizda yashayapsan. Biz shaharda yashayapmiz. Siz qaerda yashaysiz? Men har kuni qizim bilan sayr qilaman. Ahmad o'z ota-onasiga yordam beradi. Uning opasi menga yordam beradi. Biz Universitetda o'qiymiz. Biz har kuni Fors tiliga tarjima qilamiz. Sen qayerda o'qiysan? Shopur va uning akasi Tabrizda ishlayapti. Sen qayerda ishlayapsan?

ف Fe harfi

Fe harfining yozilish ikki qismdan iborat. Harfning bosh qismi aylana qilinib, so'ng ikkinchi qismi xuddi be harfga o'xshab satr chizig'ida yoziladi.

Fe harfi quyidagi ko'rinishga ega

so'z boshi.	alohi da	talaff uzi
ف	ف	f

44- tamrin. Quyidagi so'zlarni o'qing va yozing.

آفتاب، رفتن، سَفَر، هفت، فارسی، بَرَف، فَرَدَا، پَسَفَرْدَا،
سُفَرِه، فَنجَان، سفید، فراوان، فارس، فِرْدوسِی، کِیْف.

45- tamrin. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qilib

yozing.

Fardo, oftob, so'fre, pasfardo, raftan, fors, forsi, fenjon, sefid, farovon, haft, Ferdo'si, barf.

احمد و فرح

زمستان هوا سرد است. کوه و تپه پر از برف است. گاهی باد می وزد. احمد و فرح هنوز کوچک هستند. آنها در دبستان درس می خوانند. زمستان آنها زود به خواب می روند و زود بیدار میشوند. چایی با نان و پنیر یا گاهی شیر میخورند و به دبستان می روند. دبستان به خانه شان نزدیک است و آنها همیشه پیاده به آنجا می روند. آنها به فارسی میخوانند و می نویسند. مادرشان پرستار است. پدرشان دکتر است. آنها در بیمارستان کار می کنند. بیمارستان بزرگ است.

زمستان سه ماه دارد: دی، بهمن، اسفند. زمستان تمام می شود. بهار می رسد، آفتاب پر نور می شود. هوا گرم می شود. بَنَفشه پیدا می شود. بهار در ایران بَنَفشه فراوان است. بهار سه ماه است: فروردین، اردیبهشت و خرداد. تابستان احمد و فرح درس نمی خوانند، استراحت می کنند. به ده می روند. پدربزرگ و مادربزرگشان در ده زندگی می کنند. فرح و احمد به آنها کمک می کنند. تابستان هم سه ماه است: تیر، مرداد و شهریور. احمد و فرح این سه ماه در ده می مانند. آنها پاییز به دبستان می روند. پاییز سه ماه است: مهر، آبان، آذر.

46- tamrin. Quyidagi savollarga javob yozing.

آیا زمستان هوا سرد است؟ کوه و تپه پر از چیست؟ احمد و فرح بزرگ هستند؟ آنها کجا درس می خوانند؟ مادرشان کیست؟ پدر و مادرشان کجا کار میکنند؟ بیمارستان بزرگ است؟ زمستان آنها زود بخواب میروند؟ کی بیدار میشوند؟ چایی با چی میخورند؟ شیر می خورند؟ زمستان چند ماه است؟ بهار آفتاب پر نور است؟ هوا گرم میشود؟ بَنَفشه پیدا میشود؟ بهار چند ماه است؟ تابستان احمد و فرح درس میخوانند؟ تابستان کجا می روند؟ پدربزرگشان در ده زندگی میکنند؟ فرح و احمد به کی کمک می کنند؟ پاییز باز به دبستان می روند؟

Quyidagi zarbulmasalni yodlang.

kuh be kuh namirasad , odam be odam mirasad – Tog‘ bilan tog‘ uchrashmaydi, odam bilan odam uchrashadi.

واژه ها

nurli	– po‘r nur	پر نور	suv	– ob	آب
piyoda	– piyode	پیاده	obon (8-oy 23.10–21.11)	– obod	آبان
paydo bo‘lmoq	– peydo sho‘dan	پیدا شدن	odam	– odam	آدم
yozi	– tobeston	تابستان	ozar (9-oy 22.11–21.12)	– ozar	آذر
tepalik	– tape	تپه	oftob	– oftob	آفتاب
tir(4-oy. 22.04– 22.05)	– tir	تیر	o‘rdibehesht(2– oy.22.11–21.12.	– o‘rdibehesht	اردیبهشت
tarjima qilmoq	– tarjume kardan	ترجمه کردن	istirohat qilmoq	– esterohat kardan	استراحت کردن
tugamoq	– tamom sho‘dan	تمام شدن	esfand (12-oy. 20.02–21.03)	– esfand	اسفند
bir nechta	– chand	چند	shamol	– bod	باد
xo‘rdod(3-oy. 22.05–21.06)	– xo‘rdod	خرداد	yana	– boz	باز
universitet	– doneshgoh	دانشگاه	qor	– barf	برف
boshlang‘ich maktab	– dabeston	دبستان	katta	– bo‘zo‘rg	بزرگ
dars	– dars	درس	binafsha	– banafshe	بنفشه
o‘qimoq	– dars xondan	درس خواندن	uxlamoq–	be xob raftan	به خواب

vrach	– do‘kto‘r	دکتر
yugirmoq	– davidan(dav)	دویدن (دو)
dey (10-oy.22.12–20.01)	– dey	دی
yetmoq	– rasidan	رسیدن
bormoq	– raftan	رفتن
kichik	– kuchek	کوچک
tog‘	– kuh	کوه
ba‘zan	– gohi	گاهی
sayr qilmoq	– gardesh kardan	گردش کردن
isimoq	– garm sho‘dan	گرم شدن
oy	– moh	ماه
momo	– modar bo‘zo‘rg	مادر بزرگ
qolmoq	– mondan	ماندن
matn	– matn	متن
mo‘rdod (5-oy. 23.07–22.08)	– mo‘rdod	مرداد
mehr (7-oy.23. 09–22.10)	– mehr	مهر
yaqin	– nazdik	نزدیک
hijriy	– hejri	هجری
barchasi	– har che	هر چه
etti	– haft	هفت
hafta	– hafte	هفته
ham	– ham	هم
hanuz	– hanuz	هنوز
esmoq	– vazidan	وزیدن
bir	– yek	یک
yordamlashmoq	– komak kardan	کمک کردن

bahman(11-oy. 21.01–19.02)	– bahman	رفتن بهمن
uyg‘onmoq	– bidor sho‘dan	بیدار شدن
shifoxona	– bimorston	بیمارستان
kuz	– poiz	پاییز
bobo	– pedar bo‘z‘rg	پدر بزرگ
hamshira	– parastor	پرستار
qish	– zemeston	زمستان
hayot	– zendagi	زندگی
ko‘p, ziyod	– zeyod	زیاد
oq	– sefid	سفید
it	– sag	سگ
sigaret	– sigor	سیگار
sigaret chekmoq	– sigor kashidan	سیگار کشیدن
bo‘lmoq	– sho‘dan (sho‘u)	شدن (شو)
shamsi	– shamsi	شمسی
shahrivar (6-oy.23. 08–22.09)	– shahrivar	شهریور
ko‘p	– farovon	فراوان
farah (ism)	– farah	فرح
erta	– fardo	فردا
farvardin(1-oy. 21. 03–20.04)	– farvardin	فروردین
ish	– kor	کار
ishlamoq	– kor kardan	کار کردن
korxona	– korxone	کارخانه
pichoq	– kord	کارد
qayer	– ko‘jo	کجا
tortmoq, chekmoq	– kashidan	کشیدن

درس هفتم YETTINCHI DARS

ل lom harfi


"Lom" harfi soʻz boshida va soʻz oʻrtasida alif harfiga oʻxshash, lekin oʻzidan keyingi harf bilan ulanib yoziladi. "Lom" harfining alohida shakli ikki unsurdan iboratdir. Satr ustida yoziladigan qismi "alif"ga, satr ostiga yoziladigan qismi esa "nun" harfiga oʻxshaydi.

Lom harfining yozilishi

Lom harfi ل alif, ك kof, گ gof harflari bilan yozilganda maʼlum oʻzgarishlarga uchraydi.

soʻz boshi	alohida	talaffuzi
ل	ل	l

$لا = ل + ا$ $l + o = lo$ $كلا = ل + ل + ك$
 $k + l + o = klo$
 $كل = ل + ك$ $k + l = kl$ $گلا = ل + ل + گ$
 $گ + l + o = glo$
 $گل = ل + گ$ $g + l = gl$



Lom harfi tasviriyy yozuvdagi lamd – hasa, aso belgisi asosida yaratilgan. Kirill yozuvidagi „Л,, harfiga, yunoncha lyamda ham shu shakl asos hosil boʻlgan.

47- mashq. Quyidagi soʻzlarni yozing va oʻqing.

آلو، گلابی، کلمه، جالب، تکالیف، آلبالو، مشکل، حال، لباس، سلام، بله، احوال، حالا، لانه، پلو، مال، بلند، خیلی، دولتی، پول، لیمو، سال، لازم، چنگال، لب، گل، لاله، مثل.

48- mashq. Quyidagi soʻzlarni fors tilida yozing va oʻqing.

Boʻland, holo, lebos, bale, sol, lole, goʻl, pul, doʻulati, joleb, kaleme, olu, limu, plov, mol, ahvol, taklif, olbolu, hol, salom, moʻshkel, goʻlobi, xeyli, lozem, changol, lab.

اضافه Izofa

Fors tilida aniqlanmish bilan aniqlovchi, qaralmish bilan qaratqich oʻrtasidagi aloqa maxsus birikma "IZOFA" yoʻli bilan ifodalanadi. Bunda soʻz tartibi quyidagicha boʻladi: birinchi oʻrinda aniqlanmish kelib, undan soʻng urgʻu olmagan morfologik koʻrsatgich "E" qoʻshimchasi qoʻshiladi, undan soʻng aniqlovchi keladi. Aniqlanmish oxiriga qoʻshiladigan qoʻshimcha – "IZOFA" deyiladi.

پیراهن نو pirohan-e noʻu – yangi
 زبان فارسی zaban-e forsi – fors tili
 koʻylak.

Izofa arabcha soʻz boʻlib qoʻshish, orttirish degan maʼnoni ifodalaydi. Izofiy birikma bir butun ohang bilan talaffuz qilinadi.

O'zbek tilidagi aniqlovchili birikmalarda so'z tartibi fors tilidagidan farq qiladi. Fors tilida avval aniqlanmish, so'ng aniqlovchi kelsa, o'zbek tilida teskari holatni ko'ramiz.

medod-e sabz – yashil qalam, میز بزرگ miz-e bo'zo'rg – katta stol

Izofali birikma fors tilida eng ko'p qo'llanadigan aniqlovchili birikmadir. Izofali birikmada aniqlanmishga faqat sifat bilan ifodalangan aniqlovchi bog'lanib qolmasdan, ot va olmoshlar bilan ifodalangan aniqlovchilar ham bog'lanib, egalik, qarashlilik va mansublik ma'nolarini bildiradi.

ketob-e doneshju – talabaning kitobi, دوست من dust-e man – mening do'stim.

Agar aniqlanmish ا – o, و – u unlilari bilan tugagan bo'lsa bir ی yo orttiriladi.

oshno – ye pedar – otamning tanishi, مانتوی خواهر montu-ye xohar – opamning montusi. Qisqa unli bilan tugagan bo'lsa, bir ء hamza orttirilib yozilib -ye deb talaffuz qilinadi.

nome-ye modaram – onamning xati, باده ما bode-ye mo – bizning bodamiz.

در کلاس درس

در کلاس درس خانم استاد از من می پرسد: شما زبان اُزبکی میدانید؟ من بلند می شوم و جواب می دهم: بله، خانم. اما دستورش مشکل است. – زبان روسی میدانید؟ خیر، خانم، نمی دانم. – آیا زبان فارسی شیرین است؟ – بله، خانم، زبان فارسی خیلی شیرین است؟ فارسی زبان مادری فارسیان است. استادمان از دوستم می پرسد: کشور ایران بزرگ است؟ – دوستم جواب می دهد: – بله، خانم. کشور ایران بزرگ است. استاد با گچ یک کلمه فارسی روی تخته می نویسد. ما در دفتر خودمان می نویسیم. روی میز استاد دو گلدان است. در یک گلدان گل سُرخ می روید. این گلدان مال خانم استاد است. گل سرخ رنگ و بوی خوش دارد. در گلدان دیگر سُنبل می روید. درس تمام می شود. ما به راهروی دانشگاه می رویم.

خانم Fors tilida ayollarga nisbatan xono'm – xonim so'zi qo'llniladi. xono'm doneshju – talaba, خانم استاد xono'm ustod – o'qituvchi xonim, خانم مهندس xono'm mo'handes – muhandes xonim.

Quyidagi rangni bildiradigan so'zlar ham so'zlashuv, ham kitobiy uslubda ishlatiladi.

sefid – oq, سفید
zard – sariq, سبز
obi – havorang, آبی
so'rx – qizil, سرخ
noranji – to'q sariq, نارنجی
nili – zangori, نیلی
bo'nafshe – gunafsha, سرمه ای
so'rmei – so'ma rang, مشکی
meshki – qora.

49- mashq. Quyidagi so'zlarni yozing va o'qing.

خواهرم موی مشکی دارد. پیراهنت سرخ است. امروز آسمان آبی رنگ است. این دو مداد سبز است. این پیراهن بنفش است. پتوی دخترم زرد است. خانمش مانتوی سرمه ای دارد. شما مداد مشکی دارید؟ دفترش نارنجی است. او دوتا پیراهن سفید دارد.

50- mashq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Mening ko‘ylagim gunafsha rangda. Rus tili qiyin, fors tili esa osondir va yoqimlidir. Ingliz tili qiyindir. Biz fors tilini bilamiz. Men ingliz tilini bilmayman. O‘qituvchimiz savollriga forsha javob beramiz. Sening kitobing mening stolimda. Bu qalam yashil rangda. Bu gulning yaxshi hidi bor. Biz Termiz universitetida o‘qiyamiz. Ular Toshkent Universitetida o‘qiydilar. Do‘stimning ota-onasi qishloqda yashaydi. Ismingiz nima? Men bu ayolning ismini bilmayman.

zod harflari ض sod va ص

Sod tovushi "s" harfini zod tovushi "z" harfini ifodalaydi. Bu harflarni yozilishi ikki unsurdan iborat bo‘lib, satrda yoziladigan □ va satrdan pastda yoziladigan ن nunga o‘xshash shaklga ega. Bu harfning so‘z boshidagi va so‘z o‘rtasidagi ko‘rinishini yozishda aylana shaklidan so‘ng bir tish yozish kerak.

sod va ض zod harflarining yozilish.

Qo‘sh. Hol.	alohida.	talaffuzi
ص	ص	s
ض	ض	z

Sod, zod harflari yozuvda faqat bir nuqtasidan farqlanadi.

51- tamrin. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va yozing.

صدا، راضی، ضد، صُبح، شَخص، حاضر، صَلح،

صُبْحانه، شَخْصی، صابون، صَنْدَلی، أَشْخاص، ضَرْب، صَحیح، تَصْحیح، رِضا.

52- tamrin. Quyidagi so‘zlarni fors tilida yozing.

Shaxs, so‘leh, so‘bhone, hozer, sedo, sobun, so‘bh, zed, rozi, sandali, ashxos, zarb, rezo, sahih, tas’hih.

Izofiy zanjir

Fors tilida aniqlanmish bir necha so‘z bilan aniqlanib kelishi mumkin. Bu "izofiy zanjir" deb ataladi. Izofiy zanjirda aniqlovchi so‘zlar bir-birini aniqlab, izohlab va ma’nolarini to‘ldirib keladi hamda o‘zaro izofiy ko‘rsatgich orqali bog‘lanadi.

دانشگاه دولتی ترمذ ustod zabone forsi – fors tili o‘qituvchisi, ^{اُستاد زبان فارسی} Doneshgoh do‘ulatiye Termiz – Termiz davlat universiteti.

Izofiy zanjir bir butun ohang bilan talaffuz qilinadi. Rasmiy uslubda izofiy zanjirning besh-olti so‘zdan iboratlari ham uchraydi. Fors tilida izofiy zanjir tarkibidagi so‘zlar miqdori cheklanmagan.

doneshjuye sole avvle doneshkadeye filulujiye doneshgohe do'ulatiye Termez – Termiz davlat universiteti filologiya fakulteti birinchi kurs talabasi.

دانشجوی سال اول

من دانشجوی سال اول دانشگاه دولتی ترمذ هستم. دانشگاه ما نزدیک میدان نوایی است. نام آنجا میدان نوایی است. ما در دانشکده مان زبان فارسی و انگلیسی یاد می گیریم. درسمان در باره تاریخ ایران و ادبیات فارسی است. استاد به ما می گوید که ایران همسایه جنوبیه روسیه است.

دوستم در دانشگاه دولتی تاشکند درس میخواند. دوستم می گوید که در آنجا استادشان در باره تاریخ زبان ازبکی درس می دهند. در کلاس ما استادمان می پرسد: – آیا حکومت ایران پادشاهی است؟

ما جواب می دهیم: – خیر، در ایران دیگر حکومت پادشاهی نیست. حالا رسماً ایران جمهوری اسلامی است. پایتخت ایران شهر تهران است.

ما از استادمان می پرسیم: – جلال آل احمد نویسنده مشهور ایران است. ما می بینیم که دو مجله روی میز استاد است. استاد از ما می پرسد: – این چیست؟ من جواب می دهم.

– این مجله است. اسمش کیهان ورزشی است.

– و اسم آن مجله چیست؟ – اسمش زن روزه.

Ore , bale, ori va bali so'zlari haqida

Fors tilidagi tasdiqni bildiruvchi "ha" so'zi turli joylarda turlicha ishlatiladigan bir xil ma'noli to'rtta so'z bilan beriladi. ore va bale so'zlari asosan so'zlashuv uslubida ishlatiladi. Ba'zan bale so'zi rasmiy nutqda ham ishlatiladi. ori va bali so'zlari kitobiy xarakterga ega. ori juda kam ishlatiladi. ore so'zida urg'u oxirgi bo'g'inga tushadi, boshqa so'zlarda esa birinchi bo'g'inga tushadi bale so'roq so'zi kabi talaffuz qilinib, biror narsani qayta so'rash uchun ham ishlatiladi.

53- **tamrin.** Quyidagi savollarga javob yozing.

ایران همسایه کدام کشور است؟ آیا کشورمان همسایه ایران است؟ آیا در ایران حکومت پادشاهی است؟ ایران رسماً جمهوری است؟ پایتخت ایران کدام شهر است؟ کدام شهر در شمال کشور است؟ آیا کشورمان با ایران هم مرز است؟ نزدیک تهران دریا هست؟ نویسنده مشهور ایران کیست؟ روی تخته با چه می نویسیم؟

54- **tamrin.** Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Men Universitetda o'qiyman. Men birinchi kurs talabasiman. Universitetimiz Navoiy maydonining yaqinida joylashgan. Mening do'stim Toshkent Universitetida o'qiydi. U fors tilini o'rganayapti. Unda forsha jurnal bor. U jurnal "Keyhone varzeshe" deb nomlanadi. Oqituvchi bo'r bilan doskaga bir so'zni yozadi. Bu so'zni

biz daftarimizga yozamiz. U mendan bu nina? deb so‘radi. Bu jurnal deb javob berdim. Dars tamom bo‘ldi. Biz dahlizga chiqdik. Do‘stim ham dahlizga chiqdi.

Eslab qoling: دل به دل راه دارد del be del roh dorad – dilga dil yo‘l topadi.

واژه ها

olib bormoq	bo‘rdan(bar)	بردن(بر)	havorang	– obirang	آبی رنگ
javob bermoq	– javob dodan	جواب دادن	ha	– ore, ori	آره، آری
bir qancha	– chandon	چندان	keltirmoq	– ovaradan(ovar)	آوردن(آور)
sanchqi	– changol	چنگال	adabiyot	– adabiyot	ادبیات
nima	– che, chi	چه، چی	Islom	– eslomi	اسلامی
hozir	– holo	حالا	ism	– esm	اسم
hukumat	– ho‘kumat	حکومت	inglizcha	– englisi	انگلیسی
tuproq	– xok	خاک	avval	– avval	اول
kulrang	– xokstari	خاکستری	uchun	– baroye	برای
sinf	– kelos	کلاس	o‘z	– xo‘d	خود
so‘z	– kalima	کلمه	yaxshi	– xush	خوش
ke (bog‘lovchi)	– ke	که	juda	– xeyli	خیلی
kim	– ke, ki	که، کی	haqida, tog‘risida	– dar bore-ye	در باره
kosmos	– keyhon	کیهان	dengiz	– daryo	دریا
bo‘r	– ganch	گچ	grammatika	– dastur-e-zabon	دستور زبان
aytmoq	– go‘ftan(gu)	گفتن(گو)	daftar	– daftar	دفتر
gul	– go‘l	گل	dil	– del	دل
atirgul	– dol-e so‘rx	گل سرخ	davlat	– do‘udlat	دولت
guldon	– go‘ldon	گلدان	ko‘rmoq	– didan(bin)	دیدن(بین)
jurnal	– majalle	مجله	boshqa	– digar	دیگر
markaz	– markaz	مرکز	yo‘l	– roh	راه
qiyin	– mo‘shkel	مشکل	o‘shmoq	– ro‘stan(ruy)	رُستن(روی)
mashhur	– mashhur	مشهور	rang	– rang	رنگ
soch	– mu	مو	yuz	– ru	رو
maydon	– meydon	میدان	yil, yosh, kurs	– sol	سال
to‘q satiq	– noranji	نارنجی	bosh	– sar	سر
nom	– nom	نام	sunbul	– so‘nbo‘l	سنبل
yonida	– nazde	نزد	shimol	– shemol	شمال
yaqinida	– nazdik	نزدیک	suhbatlashmoq	– so‘hbat kardan	صحبت کردن
to‘q satiq	– nili	نیلی	tinchlik	– so‘lh	صلح
sport	– varzesh	ورزش	stul	– sandali	صندلی
chegaradosh	– ham marz	هم مرز	qaysi	– ko‘dom	کدام
yodlamoq	– yod gereftan	یاد گرفتن	mamlakat	– keshvar	کشور

درس هشتم SAKKIZINCHI DARS

ق Q undosh tovushi

"Q" tovushi fors tilida jarangli, sirg'aluvchi, chuqur til orqa tovushidir. Eronliklar "Q" tovushini "g'" tarzida talaffuz qiladilar. Q va G' tovushlari bir xil talaffuz etilsa ham, yozuvda ikkita alohida harflar bilan ifodalanadi. Birining o'rnida ikkinchisini ishlatib bo'lmaydi.

Qof q, g'ayn g' harflari har ikki tomondan qo'shiladigan (muttasil) harflar sirasiga kirib, to'rt xil ko'rinishga ega.


so'z oxiri.	so'z o'rtasi	so'z bosh.	alohida	talaffuzi
غ	غ	غ	غ	g'

Qo'sh. Hol	alohida	talaffuzi
ق	ق	q

Har ikki harfning yozilishi ikki qismdan iboratdir. Satrda yoziladigan shakli bir tomoni ochiq aylana sifatida bo'lib soat harakatiga teskari tomonga qarab yoziladi. So'z o'rtasida va oxirida ikki tomondan ulangani uchun uchburchak shaklda bo'lib, soat harakatiga monand yoziladi. Satrdan pastda yoziladigan qismi esa sal kattaroq yarim aylana shaklda yoziladi.

Qof harfi esa fe harfiga o'xshash yoziladi. Faqat ikkita nuqtasi bo'lib, satrdan pastda yoziladigan qismi chuqurroq aylana shaklda bo'ladi.

Qof harfi qadimgi somiy tasviriy yozuvdagi qof – ignaning ko'zi belgisi asosida hosil qilingan. Arabcha „fe“ va yevropacha „Ф,“ harflari ham shu belgi asosida yaratilgan.



55- **tamrin.** Quyidagi so'zlarni o'qing va yozing.

غذا، قهوه، شرق، رُفقا، وقت، شرقی، قاشق، قَلَم، اِنقلاب، بُشقاب، غرب، كاغذ، چراغ، تقریبا، رفیق، باغ، مَغرب، تیغ، شُغل، مُسابقه.

56- **tamrin.** Quyidagi so'zlarni fors yozuvida yozing va o'qing.

G'azo, sharqiy, g'arb, vaqt, qosho'q, cheroy, rufaqo, enqelob, kog'az, sharq, g'arb, bo'shqob, qahve, qalam, taqriban, g'arbiy, bog'.

وجه امری Buyruq fe'li

Fors tilida buyruq fe'li buyurish, iltimos, chaqiriq ma'nolarini ifodalaydi. Bu shakl fe'lining hozirgi zamon o'zagi oldiga به – be old qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Buyruq ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi.

خوان xon (hoz.zam. o'zagi) بخوان bexon – Oqi xondan – qimoq خواند ro ru ُرو bero'u – bor raftan – bormoq رفتن

Buyruq fe'lining ko'plik shakli birlik shakliga يد id shaxs-son qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi.

دادن dodan – bermoq ده deh (hoz.zam. o'zagi) bedeh – ber بدهيد bedehid – bering . آمدن omadan – kelmoq بيا biyo – kel بيويد biyoid – keling.

Buyruq fe'lining bo'lishsizlik shakli hozirgi zamon fe'l o'zagi oldiga نه na inkor yuklamasini keltirish bilan yasaladi.

گفتن go'ftan – aytmoq گو gu نگو nagu – aytma نگويد nagud – aytmang.

Buyruq maylidagi ba'zi sodda fe'llarning so'zlashuv shakli

Noaniq sh مصدر		birlikda		ko'plikda	
Keltirmoq	آوردن (آور، آر)	Ovardan(ovar,or)	biyor	بيار	biyorin
Kelmoq	آمدن (آ)	omadan(o)	biyo	بيا	biyoyin
Bo'lmoq	بودن (باش)	budan(bosh)	bosh	باش	boshin
Bermoq	دادن (ده)	dodan(deh)	bedeh	بده	bedin
Bormoq	رفتن (رو)	raftan(ru)	bero'u	برو	berin
Bo'lmoq	شدن (شو)	sho'dan(sho'u)	besho'u	بشو	beshin
Aytmoq	گفتن (گو)	go'ftan(gu)	begu	بگو	begin
Qo'yomoq	گذاشتن (گذار)	Go'zoshtan(go'	bezor	بذار	bezin

57- **tamrin.** Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Marhamat, matinni o'qing. Iltimos, bu yerda gaplashmang. Iltimos, bu haqida ularga aytmang. Ruchkani oling va bu so'zni forscha yozing. Menga bo'r ber. Iltimos, tezroq yuring. Bu yerga kel. Iltimos deraza tarafga bor. Iltimos, o'ringizdan turing. Bu yerga o'tir. Bu yerga hech narsa qo'yma.

ط To, ظ zo va ع ayn harflari

To harfi somiy tasviriy yozuvdagi tayt – kalava shakli asosida yaratilgan.



To, zo harflari ikki element asosida yoziladi. Satr chizig'ida yoziladigan qismi sod, zod harflarining so'z boshidagi ko'rinishiga, ikkinchi unsuri alif harfining yuqoridan pastga yoziladigan ko'rinishidir. Ayn harfi xuddi g'ayn harfidek yoziladi. Faqat nuqtasi bo'lmaydi.

Qo'sh . Hol	alohida	talaffuzi
ط	ط	t
ظ	ظ	z

so'z oxiri	so'z o'rtasi	so'z boshi	alohida	talaffuzi
ع	ع	ع	ع	a,i,u

Ayn,to, zo harflari faqat arab tilidan kirgan so'zlarda uchraydi. Ayn harfi esa arab tilidan kirib kelgan maxsus tovushni ifodalaydi. Arab tilida ayn jarangli,

portlovchi, bo'g'iz tovushi bo'lib, fors tilida bu tovush o'z talaffuz xususiyatini bir muncha yuqotgan holda ishlatiladi. Fors tilida aynning quyidagi xususiyatlari bor:

a) So'z oxirida kelib ma'noni farqlaydi; من man – men, منع man' – man qilish, زر zar – zar, oltin زرع zar' – ekin, فر far – hashamat, فرع far' – o'sish, ko'payish;

b) so'z boshida kelganda ayn harfiga qo'yilgan harakat talaffuz etiladi; علم 'elm – ilm, عمر o'mar – umar, اقرب aqrab – chayon, عادل odel – odil.

v) so'z o'rtasida yoki oxirida kelganda unli tovushdan so'ng kelganda unga ta'sir qilib, cho'ziqroq talaffuz etishga ishora qiladi: تعليم ta'lim(taalim), دفاع defo' (defoo), تعطيل ta'til (taatil).

Ayn, g'ayn va yevropacha „O“ harflari somiy tasviri yozuvdagi ayn – ko'z shakli asosida hosil qilingan.



58- tamrin. Quyidagi so'zlarni o'qing va yozing.

شاعر، شروع، طوطى، دفاع، وسيع، ظاهر، عمارت، ساعت، طاووس، شعر، شعبه، ظلم، علم، جمعه، بعد، لطف، على، تعطيل، طلوع، عادل، عليكم، جمع، عبادت، شاعر، لفظ، الفاظ.

59- tamrin. Quyidagi so'zlarni forscha yozing.

Lafz, defo', to'lu, zoher, so'at, o'li, jo'me', tuti, sho'er, zo'lm, ba'd, taraf, zarf, vasi', jam'.

Marhamat so'zi haqida

Marhamat so'zi qo'llanish holatiga qarab bir necha xil tarjima qilinadi. Agar siz ishora bilan suhbatdoshingizga o'tirishni taklif qilsangiz فرمودن farmudan fe'li 2-sh.bir. qo'llaniladi. فرمودن (فرما) farmudan (farmo) – buyuring بفارماید befarmoid – marhamat. اینجا befarmoin injo – marhamat, bu yerga keling. befarmoid ke – marhamat ichkariga kiring. befarmoid tu – marhamat بفارماید befarmoid ke – marhamat, ayting. بله bale, befarmoid – allo, eshitaman (tel. orqali). Xushmuomalalik bilan aytilganda. خواهش می کنم xohesh miko'nam – iltimos.

خیلی بنویس خواهش می کنم benavis xohesh miko'nam – iltimos yoz. javobi: xeyli mamnun – katta rahmat خواهش می کنم xohesh miko'nam – marhamat.

Ko'pgina rasmiy va norasmiy holatlarda لطف lo'tfan so'zi marhamat o'rnida ishlatiladi. Bu so'zdan so'ng albatta fe'l kelishi kerak. لطفاً سیگار نکشید lo'tfan sigor nakashid – iltimos, chekmang. لطفاً به مادرش تلفن بکنید lo'tfan be modarash telefo'n beko'nid – iltimos, uning onasiga telefon qiling. لطفاً بلند بخوانید lo'tfan bo'land bexonid – iltimos, balandroq o'qing. Xizmat qiladiganlar bilan suhbatlashganda لطف کردن lo'tf kardan fe'li ishlatiladi قهوه لطف کنید ye qahve lo'tf ko'nid – iltimos qahva keltiring, آقای احمدی لطف کنید Og'oye Ahmadi lo'tf kardid – janob Ahmadiy marhamat qilingiz.

60- tamrin. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

بیا اینجا، خواهش میکنم. بفرمایید تو. بُرو خانه اش. نترس، اینجا که چیزی نیست. خواهش می‌کنم، از من چیزی نپرس. امشب گردش کن. زود باش، قاشق و بشقاب بیار. لطفاً آب سرد نخورید. یه لیوان آب جوشیده لطف کنید. پیش من بیا، زود باش. بلند بشوید. آب سرد نخور. امروز کار کن، استراحت نکن. لطفاً دست راست بروید. یه قاشق دیگه، لطف کنید. بفرمایید سر میز. بفرمایید که خودش کجاست؟ بله، بفرمایید، خواهش میکنم که به او نگو.

حل مشکل یک دوست

اسم من پرویز است. من در تهران پایتخت ایران زندگی میکنم. خانه پدر من در خیابان انقلاب است. خیابان انقلاب خیلی طولانی است. من هنوز با پدر و مادرم زندگی میکنم. یکی از سه اتاق منزل من در اختیار من است. اطاقم یک پنجره رو به خیابان دارد. یک پنجره اطاق نشیمن به حیاط و دیگری به خیابان باز میشود. در حیاط منزل من یک حوض کوچکی است و در آن چند ماهی قرمز شنا میکنند. سه درخت هم در خیابان وجود دارد: یکی چنار و دوتای دیگر سیب است. بهار و تابستان برگشان سبز است و با آغاز فصل پاییز کم کم زرد میشود.

من در دانشگاه تهران در رشته ادبیات فارسی درس میخوانم. منزل من به دانشگاه نزدیک است. و من هر روز این راه را پیاده میروم. دوست صمیمی من نادر است. نادر هم در دانشگاه تهران درس میخواند. رشته او تاریخ سیاسی است. خانه نادر از دانشگاه دور است.

امروز من مثله همیشه از خانه خارج میشوم. ناگهان صدای تلفن بلن میشود. این نادر است که به من تلفن میزند. معلوم میشود که آنها امروز به یک خانه جدیدی اثاب کشی میکنند. خانه جدیدشان بزرگتر از قبلی است و در خیابان طالقانی قرار دارد.

پرویز در دفتر گروه آموزشی را باز میکند.

سلام، اجازه می‌فرمایید؟

– سلام خواهش می‌کنم، بفرمایید.

– حالتان خوب است، خانم؟ ببخشید، آقای دکتر باستانی تشریف دارند؟

– آقای دکتر باستانی؟

– الان تشریف ندارند ولی... آه، ایشان دارند تشریف میارند.

دکتر باستانی از راه میرسند و پرویز جلو رفته می‌گوید:

– سلام آقای دکتر!

– سلام.

– حالتون خوبه، آقای دکتر؟ ببخشید، من دوست نادر محمدی هستم. ایشان گرفتاری

دارند و سر کلاستان نمی‌آید. این را که بنده خدمتان رسیدم و این مطلب را خدمتان عرض میکنم.

گرفتاری؟ انشا الله خیره، گرفتاریش چیست؟

– آنها خانه جدیدی خریدند و امروز اسباب کشی میکنند.
– مبارک باشد، در این صورت غیبتش موجه است. فردا که میاد؟ فردا هم با من درس دارد.

فکر میکنم حتماً میاید. به من گفت فقط امروز نمی اید.

– بسیار خوب.

– استاد امری نیست؟

– نه، پسرم، موافق باش، خدا حافظ.

– خدا حافظ.

Eronda rasmiy va norasmiy soʻzlashuvda familiya oldidan unvon aytiladi:
ogʻoye moʻhandes آقای مهندس محمدی، oqoye doʻktoʻr Shafiʻi, آقای دکتر شفعی Moʻhammadi.

Eronda vaziyatga qarab salomlashish oʻzgaradi: salom aleykoʻm – betaraf salomlashish boʻlib barcha uchun ishlatiladi. Yoshlar oʻzidan kattalarga va bir-birlariga uning qisqa shaklidan foydalanishadilar: as-salom aleykom esa katta hurmatga ega boʻlgan kishilarga nisbatan qoʻllaniladi. Yuksak martabali kishilar bilan salomlashganda: salom arz mikoʻnam deb solomlashiladi.

Eronda bir kishi bilan bir kunda necha marta uchrashsangiz shuncha marta salomlashish odat. Qayta uchrashganda albatta: salom, holeton xube xaste naboshid – hormang.

amri, farmoyeshi nadorid – menga xizmatigiz yoʻqmi? qoʻrbone shomo – qurboning boʻlay yoki dige arzi nadorm – boshqa gapim yoʻq deb javob beriladi.

61- tamrin. Quyidagi savollarga javob bering.

پرویز کجا زندگی میکند؟ خانه اش کجاست؟ اسم دوستش چیست؟ منزلش کجای تهران است؟ منزلش چند تا اتاق دارد؟ در حیاطشان کدام درخت میروید؟ در فصل پاییز چه میشود؟ نادر با چه کسی صحبت میکند؟ چرا نادر سر درس نمی اید؟ استادش با کی صحبت میکند؟ نادر در دانشگاه چه درس میخواند؟

62- tamrin. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Nodir doʻstining ismi nima? U qayerda yashaydi? Parviz qayerda yashaydi? Uylarida qanday xonalari bor? Ularning hovlisida nimalar bor? Nodorning uyi Universitetdan uzoqmi? U Universitetda nimani oʻrganayapti? Uning oʻqituvchisi kim? Uning oilasi bugun nima qilayapti? U nima uchun bugun darsga kelmaydi? U kafedrada kim bilan suhbatlashayapti? Undan nima soʻrayapti? Kafedraga kim kelyapti?

Eslab qoling!

hesob hesob ast, koko barodar – hisobli do‘st
ayrilmas. کاکا برادر است ، حساب حساب است

واژه ها

xudo xohlasa	– enshoalloh	انشا الله	suv	– ob	آب
ular	– ishoh	ایشان	sovuq suv	– obe sard	آب سرد
ochmoq	– boz kard	باز کردن	boshlamoq	– og‘oz kardan	آغاز کردن
olib bormoq	– bordan (dar)	بردن (بُر)	o‘qish	– omuzesh	آموزش
barg	– barg	برگ	xona	– o‘toq	اطاق
yopmoq	– bastan (band)	بستن (بند)	aftobuz	– o‘to‘bus	اتوبوس
tarelka	– bo‘shqob	بشقاب	ruksat	– ejoze	اجازه
kamina	– bande	بنده	ixtiyor	– extiyor	اختیار
ta	– to	تا	ixtiyoringiz	– extiyor dorid	اختیار دارید
tashrif	– tashrif	تشریف	narsa	– asbob	اسباب
kelmoq	– tashrif ovardan	تشریف آوردن	ko‘chish	– asbobkeshi ovardan	اسبابکشی
ketmoq	– tashrif bo‘rdan	تشریف بردن	hozir	– alon	الان
bo‘lmoq	– tashrif doshtan	تشریف داشتن	assalomu alaykum	– assalomo‘ alaykum	السلام عليكم
janobi oli	– janobe oli	جنابعالی	buyruq	– amr	امر
suzish	– sheno	شنا	ciroq	– chirog‘	چراغ
suzmoq	– sheno kardan	شنا کردن	nima ish	– chekor	چکار
eshitmoq	shenidan(sheno‘u)	شنیدن (شنو)	chinor	– chinor	چنار
ertalab	– so‘bh	صبح	saqlovchi, hofiz	– hofez	حافظ
tovush, ovaz	– sedo	صدا	albatta	– hatman	حتماً
chaqirmoq	– sedo kardan	صدا کردن	so‘z, harf	– harf	حرف
samimiy	– samimiy	صمیمی	hal	– hal	حل
tashqi ko‘rinish	– surat	صورت	oila	– xonevode	خانواده
uzum	– tuloni	طولانی	xayr	– xudo hofez	خدا حافظ
oliy	– oliy	عالی	sotib olmoq	– xaridan	خریدن
almahstirmoq	– avaz kardan	عوض کردن	iltimos qilmoq	– xohesh kardan	خواهش کردن
taom	– g‘azo	غذا	xiyobon	– xiyobon	خیابان
g‘arb	– g‘arb	غرب	to‘g‘iri	– do‘ro‘st	درست
Yo‘qligi	– g‘eybat	غیبت	daftar	– daftar	دفتر
farmoyish	– farmoyesh	فرمایش	o‘zak, soha	– reshte	رشته
sotmoq	– fo‘ro‘xtan	فروختن	urmoq	– zadan(zan)	زدن (زن)
fasl	– fasl	فصل	telefon qilmoq	– telefun kardan	تلفن زدن
faqat	– faqat	فقط	siz(ayol,hariy)	– sarkor	سر کار
fikr	– fekr	فکر	salom	– salom	سلام
o‘ylamoq	– feker kardan	فکر کردن	solom	– salom arz miko‘nam	سلام عرض میکنم

qoshiq	– qosheq	قاشق	salom	– salom alaykom	سلام عليكم
qirmiz	– qermez	قرمز	sharq	– sharq	شرق
qahva	– qahve	قهوه	sharqiy	– sharqiy	شرقی
qahvarang	– qahvei	قهوه ای	qog‘az	– kog‘az	کاغذ
ma‘lum	– ma‘lum	معلوم	qaerda	– ko‘jo	کجا
manzil	– manzel	منزل	oz	– kam	کم
sababli	– muvajjah	موجه	biroz	– kami	کمی
muvofoqiyatli	– muvofeq	موفق	sumka	– kif	کیف
muvofoqiyat	– muvofiq boshid	موفق باشید	muammo	– gereftori	گرفتاری
tilayman					
to‘satdan	– nogahon	ناگهان	kafedra	– guruhe omuzesh	گروه آموزش
oshxona	– nahorxuri	نهارخوری	aytmoq	– go‘ftan	گفتن
sozlar	– voje	واژه	baliq	– mohi	ماهی
vujud	– vo‘jud	وجود	misli	– mesl	مثل
mavjud	– vujud doshtan	وجود داشتن	ketmoq	– mo‘raxxas sho‘dan	مرخص شدن

درس نهم TO‘QQIZINCHI DARS

Yo-ye vahdat va yo-ye nakare

Fors tilida biror narsa yoki shaxsning birlik va noaniqligini ko‘rsatish uchun ularga yo-ye vahdat(birlik), yo-ye nakare (noaniqlik) belgisi **ی** – yo qo‘shilib "I" deb talaffuz qilinadi. Bu yo fors tili grammatikasida **یای وحدت** yo-ye vahdat **یای** yo-ye nakare deb nomlanadi. Bu yo urg‘u qabul qilmaydi.

کتاب korgar – ishchi, کارگری korgari – (qandaydir, noma‘lum) bir ishchi. کارگر ketob – kitob, کتابی ketobi – (qandaydir, nomalum) bir kitob.

Yo-ye vahdatning yozilishi

1. Undosh bilan tugagan so‘zlarda yo bevosita otlarning oxiriga qo‘shiladi دختر do‘xtar – qiz bola, دختری do‘xtari – (qandaydir) bir qiz bola, میز miz – stol, میزی mizi (qandaydir) bir stol.

2. "O" yoki "u" cho‘ziq unlilari bilan tugagan so‘zlarda **ی** – yo orttirilib yoziladi. صدا sedo – tovush, صدایی sedoi – (qandaydir) bir tovush, دانشجو doneshju – talaba, دانشجوی doneshjui – (qandaydir) bir talaba.

3. "E" qisqa unlisi bilan tugagan so‘zlarda **ی** – yo harfi oldidan bir alif orttirilib yoziladi. نامه nome – xat, نامه ای nome-i – (qandaydir) bir xat.

 بده ساقی می باقی که در جنت نخواهی یافت،
 کنار آب رکناباد و گلگشت مصلا را.
 فغان کین لولیان شوخ شیرین کار شهر آشوب،
 چنان بردند صبر از دل که ترکان خوان یغمارا.
 ز عشق ناتمام ما جمال یار مستغنی است،
 به آب و رنگ و خال و خط چه حاجت روی زیبا را.
 من از آن حسن روز افزون که یوسف داشت دانستم،
 که عشق از پرده عصمت بیرون آرد زلیخارا.
 اگر دشنام فرمایی و گر نفرین دعا گویم،
 جواب تلخ می زبید لب لعل شکرخارا.
 نصیحت گوش کن جانا که از جان دوست تر دارند،
 جوانان سعادتمند پند پیر دانا را.
 حدیث از مطرب و می گو و راز دهر کمتر جو،
 که کس نگشود و نگشاید بحکمت این معمارا.
 غزل گفתי در سفتی بیا و خوش بخوان حافظ،
 که بر نظم تو افشاند فلک عقد ثریا را.

Agar ko'glimni shod etsa, o'shal Shiroz jononi,
 Qora xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni.
 So'n, ey soqiy mayni oxirigacha jannatda topolmayсан,
 Bu Ruknobod qo'rg'og'nidagi so'lim Musalloni.
 Shu aldoqchi, qiziqchi, fitnachi sho'xlar qo'lidan dod,
 Ko'ngildan eltdilar sabrim qilib Turklarcha yag'moni.
 Mening nuqsonli ishqimga uning husni emas muhtoj ,
 Go'zal yuz hech talab qilmas bo'yoq ham zebu oroni.
 Men ul Yusufdagi cheksiz go'zallikdan aniq bildim,
 Chiqarmish ishq nomus pardasidan ul Zulayhoni.
 Yomon deding quvondim men, xudo haqi, so'zing to'g'ri,
 Go'zalroq ayladi achchiq so'zing la'li Shakarxoni.
 Nasihat tinglag'il, jono, tuturlar jonu dildan dustroq,
 Aqli baxtli yoshlar hurmat aylab keksa dononi.
 Gapir cholg'uvchidan, maydan jahon sirin kam izla,
 yecholmas hech kishi hikmat-la bu og'ir muammoni.
 G'azal etdingu dur sochding, yoqimli kuyla, ey Hofiz,
 Falak nazmigga gavhardek nisor etsin Surayyoni.

(Xurshid tarjimasi)

مطلوب نظر خاص و Hammaga yoqadigan- matlube nazare xosu om qaror gereftan
عام قرار گرفتن

Adabiyotda o'z o'rniga ega bo'lmoq- fazoye adabro be xud extesos dodan
فضای ادب را به خود اختصاص دادن

O'TTIZ TO'RTINCHI DARS درس سی و چهارم

Birinchi mashg'ulot *Arabiy o'zlashmalar*

Fors tilining lug'at tarkibida kelib chiqishi jihatidan eroniy bo'lgan so'zlar bilan bir qatorda chet tillaridan o'zlashgan so'zlar ham salmoqli miqdorini tashkil etadi. Mazkur o'zlashmalarning katta qismi arabiy so'zlardan iborat bo'lib, asosan, ular ismiy so'z turkumlariga oid birliklardir. Arabiy o'zlashmalarni sof eroniy so'zlardan ajratib olish ancha oson, chunki arab tilidagi so'zlar, asosan, o'ziga xos morfologik shakllar-boblar ko'rinishiga ega bo'ladi.

Arabiy o'zlashmalarning tuzilishi va shakllarini tushunib olish uchun, avval, arab tilining ba'zi o'ziga xosliklari bilan tanishish zarur. Quyida arab tilining ana shu jihatlari yoritiladi.

Arab tilida so'z o'zagi va uning xususiyatlari

O'zak so'zning lug'aviy ma'noga ega bo'lgan eng kichik va bo'linmas qismidir. Arab tilidagi ko'pchilik so'zlarning o'zagi undosh tovushli birikmadan iborat bo'ladi. Mazkur undosh tovushlar so'z o'zagi qaysi shakl, ya'ni bobga solinishidan qat'iy nazar, doimo saqlanadi. Boshqacha qilib aytganda ular poydevorini tashkil etadi.

Lekin shuni ham hisobga olish kerakki, hech qaysi soʻz faqat oʻzak undoshlarining oʻzidagina iborat boʻlmaydi. Har bir soʻz oʻzakdagi uch undoshdan tashqari u yoki bu unli tovushlarni, baʼzan esa qoʻshimcha undoshlarni tarkib soʻzning qaysi bobga tegishli ekani bilan belgilanadi. Masalan, كَتَبَ oʻzagidan quyidagi soʻzlar yasalishi mumkin:

کتاب ketob-kitob, کاتب koteb-kotib, مکتوب maktub-xat, مکاتبه moʻkotebe- yozishma va h.k. علم oʻzagidan: علم `elm-ilm, عالم `olem- olim. معلوم maʼlum- maʼlum, تعلیم taʼlim- taʼlim, معلم moʻallem- muallim, علام eʼlom- eʼlon.

Bunday arabiy oʻzlashmalar oʻzbek tilida ham juda koʻplab uchraydi.

Demak, soʻz oʻzagining u yoki bu oʻzgarishi arab tilining feʼl boblari qoliplari bilan tartibga solib boriladi. Quyida ana shu boblar bilan tanishishni boshlaymiz.

Feʼl boblari

Arab tilidagi soʻzlarning aksariyati feʼliy oʻzaklardan yasalgan боʻлади, yaʼni feʼl turli isimy soʻz turkumlariga, ravishlarga oid soʻzlarning yasalishi uchun asos boʻladi. Masalan, yuqoridagi keltirilgan soʻzlar کَتَبَ *kataba* - yozmoq va علم `alama - bilmoq, oʻrganmoq feʼllaridan yasalgan.

Arab tilidagi feʼllar kerakli maʼnolarni ifodalashi uchun oʻziga xos qoliplari-feʼl boblariga solib ishlatiladi. Hammasi boʻlib arab tilida 15 ta feʼl bobi mavjud, lekin ular ichida 9 tasi, yaʼni I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, X boblar koʻproq qoʻllaniladi. Har bir bob oʻzining maxsus qoliplariga (paradigmalari) va tegishli maʼno yoʻnalishlariga ega.

Fors tiliga aynan ana shu feʼllar emas, balki feʼliy oʻzaklardan yasalgan ismlar (otlar, sifatlar), harakat nomlari (masdarlar), aniq va majhul darajadagi sifatdoshlar oʻzlashgan. Sifatdoshlarning aksariyati otlashib yoki sifatlashib boʻlgan.

Arab feʼl boblari qoliplarining shartli belgilari.

Arablarning oʻzi feʼl boblari qoliplarini ifodalash uchun فعل *faʼla*-qilmoq feʼli oʻzagidan foydalanishadi: ف - oʻzakdagi birinchi undoshni, ع - ikkinchi undoshni va ل - uchinchi undoshni ifodalaydi. Oʻzak tarkibiga kiritiladigan unli yoki qoʻshimcha undosh tovushlar tegishli harflar yoki harakatlar (diakritik belgilar) bilan ifodalanadi. Masalan, I bob aniq nisbat sifatdoshi qolipi فاعل *foʼel*, majhul nisbat sifatdoshi esa مفعول *mafʼul* koʻrinishiga ega boʻladi (tarnskripsiya fors tilidagi talaffuzni ifodalayapti, arab tilida mazkur qoliplar talaffuzi bir oz farq qiladi).

Yevropa arabshunoslari feʼl boblari qoliplarini shartli ravishda rim raqamlari bilan belgilaydilar: I-oʻzak undosh, II-ikkinchi oʻzak undosh, III-uchinchi oʻzak undoshni bildiradi. Masalan, birinchi bob aniq nisbat sifatdoshi I o II e III, majhul nisbat sifatdoshi ma I, II u III koʻrinishlarida belgilanadi. Arab feʼl boblari qoliplari bilan tanishtirish davomida biz birinchi usul, yaʼni فعل harflardan foydalanamiz.

Feʼl bobi	Masdar qolipi	Aniq nisbat sifatdoshi qolipi	Majhul nisbat sifatdoshi qolipi
-----------	---------------	-------------------------------	---------------------------------

I bob	Masdar uchun aniq qolib yo‘q	فاعل - fo‘el	مفعول - maf‘ul
II bob	تفعيل - taf‘il	مفعل - mo‘fa‘el	مفعل - mo‘fa‘al
III bob	مفاعل - mo‘fo‘ele مفاعلت - mo‘fo‘elat	مفاعل - mafo‘el	-
IV bob	افعال - ef‘ol	مفعل - mo‘f‘el	-
V bob	تافعل - tafa‘o‘l	متفعل - mo‘tafa‘el	-
VI bob	تفاعل - tafo‘o‘l	متفاعل - mo‘tafo‘el	-
VII bob	انفعال - enfe‘ol	منفعل - mo‘nfa‘el	-
VIII bob	افتعال - efte‘ol	مفتعل - mo‘fta‘el	-
X bob	استفعال - estef‘ol	مستفعل - mo‘staf‘el	مستفعل - mastaf‘al

Eslatma: III, IV, V, VI, VII, VIII boblarining majhul nisbat sifatdoshlari uchun maxsus qoliplar mavjud, lekin ular asosida yasalgan sifatdoshlat fors tili tarkibida uchramaydi.

Bundan tashqari, o‘rin-joy ma’nolarini ifodalovchi so‘zlar qoliplari ham mavjud. Ular haqida tegishli darslarimizda ma’lumot beramiz.

1-mashq. Yuqorida berilgan jadvaldan foydalanib quyidagi so‘zlarning qoliplarini aniqlang va tarjima qiling.

تحصيل، انتخاب، احتمال، احترام، اتمام، ابراز، استقبال، مراجعت، معالجه، تلفظ، تنفس، تفریح، تشریف، مستقبل، مسافرت، مسابقه، مختلف، مبدل، مشهور، لازم، مناسب.

153-mashq. Darslik oxirida berilgan lug‘atdan foydalanib, I, II, III va IV bob qoliplari asosida yasalgan so‘zlarga misollar toping.

154- mashq. Quyidagi so‘zlarni fors tiliga tarjima qiling va qaysi fe‘l bobi qolipida yasalganligini aniqlang.

Nashr qilingan, ma’lum, mushkul, yo‘lovchi, joylashgan, lozim, olim, qiziq, diqqat, rahmdillik, inqilob, kutish, tanlash, imtihon, e’lon, ishonch, xabar, tuzatish, ehtirom, ehtimol.

Ikkinchi mashg‘ulot

(باب اول) Birinchi bob

Fors tilida birinchi bobga oid bo‘lgan arabiy masdar, aniq va majhul darajadagi sifatdoshlar juda ko‘r uchraydi. Birinchi bobning masdari uchun aniq bir qolip yo‘q. Masalan: خبر *xabar*-xabar, صف *saf*- saf, طبقه *tabaqe*- qavat va h.k.

Aniq nisbat sifatdoshi فاعل fo‘el qolipida yasilib, ish-harakat bajaruvchisi, ya’ni sub’ektning umumiy ma’nosiga ega bo‘ladi: وارد *xorej* -chiquvchi, وارد *vored* -kiruvchi va h.k.

Majhul nisbat sifatdoshi esa مفعول maf‘ul qolipi asosida yasaladi, ish-harakat ob’ekti umumiy ma’nosiga ega bo‘ladi: معروف *ma’ruf*-taniqli; مذکور *mazkur*-mazkur, eslatib o‘tilgan va h.k

در رستوران دانشگاه

مدتی بود که حسن را ندیده بودم. دیروز او را نزدیک دانشکده ما ملاقات کردم. از دیدارش خوشحال شدم. از صورتش معلوم بود که او هم از دیدنم خوشحال است. از او پرسیدم: گجا تشریف می برید؟ گفت: ساعت تنفس برای ناهار است، می روم ناهار بخورم. از او خواهش کردم با من ناهار بخورد، او قبول کرد. با هم به رستوران دانشکده رفتیم. وارد سالن بزرگی شدیم و دور میز ناهارخوری نشستیم. در رستوران دانشکده ما، برای دانشجویان و استادان، غذاهای گوناگون و خوشمزه و ارزان تهیه می کنند. صورت غذاها را نگاه کردیم تا برای خود غذایی انتخاب نماییم. حسن برای خود سوپ، چلومرغ و چایی سفارش داد. من هم آبگوشت، کباب کوبیده و قهوه سفارش دادم. پیشخدمت رستوران، برای هر یک از ما کارد، چنگال، قاشق و استکان گذاشت. نمکدان روی میز بود و یک طرف آن نمک و طرف دیگر آن فلفل داشت. دیگر روی میز، تنگ آب بود که آب جوشیده داشت، بشقاب و نان بود. از پیشخدمت پرسیدم: سالاد دارید؟ جواب داد: امروز سالاد خیار تازه و گوجه فرنگی داریم. اگر می خواهید آورم. از او خواهش کردم برای هر یک از ما سالاد بیاورد. پس از چند دقیقه، پیشخدمت برای ما دو تا سالاد آورد و بعد برای حسن سوپ و برای من آبگوشت آورد. حسن از سوپ تعریف کرد و گفت خیلی خوشمزه است. آبگوشت من هم خیلی خوشمزه بود، نخود و لوبیا و گوشت کاملاً پخته شده بود. بعد از خوردن غذای اول، پیشخدمت غذای دوم را آورد. حسن از چلو مرغ تعریف کرد که خوب پخته شده است و من هم از کباب کوبیده که از گوشت گوسفند تهیه شده بود، خوشم آمدم. ناهار را با اشتها خوردیم. بعد، پیشخدمت چایی و قهوه آورد. شیرینی چایی کم بود. حسن از پیشخدمت خواهش کرد، کمی شکر بیاورد. چایی و قهوه را نوشیدیم. به پیشخدمت گفتیم: شما آشپزماهری دارید، غذاها را خیلی خوب می پزد. از او و شما تشکر می کنم. پس از آن از رستوران خارج شدیم. حسن از رستوران ما تعریف کرد و خوشش آمد. آنگاه قرار گذاشتیم که با هم ملاقات کنیم و خدا حافظی نمودیم.

Leksik izohlar

Fors tilida suhbatlashayotgan kishilar bir-biriga hurmat-ehtiromlari baland ekanligini ko'rsatish uchun so'z va so'z birikmalarining, ayniqsa, fe'llarning yuqori, kitobiy uslub qatlamlariga oid variantlari ishlatiladi. Masalan:

تشریف Raftan-bormoq, ketmoq; آمدن o'rnida kelmoq fe'llari o'rnida رفتن tashrif bo'rdan va آمدن tashrif o'vardan fe'llari ishlatilishi mumkin:

ko'jo tashrif mibarid- qayerga ketyapsiz? ko'jo miravid کجا تشریف می برید؟ کجا می روید؟

بفرمایید به خانه ما Befarmoyid be xone ye mo biyoyid بفرمایید به خانه ما بیایید؟
Befarmoyid be xone ye mo tashrif biyovarid- marhamat, bizning tashrif buyuring(تشریف بیاورید؟
uyimizga keling).

Shuningdek, hastan- bor bo'lmoq mavjud bo'lmoq fe'li ham ko'pincha tashrif doshtan fe'li bilan almashtiriladi;

og'oye do'kto'r hastand? آقای دکتر تشریف دارند؟
og'oye do'kto'r tashrif dorand -Janob doktor bormilar?

Yuqorida aytilgandek, bunday almashtirilishlar suhbatdoshlar tomonidan bir-biriga yuksak hurmat-ehtirom izhori uchun qo'llaniladi. Tabiyki, mazkur fe'llar hech qachon birinchi shaxs shakllarida ishlatilmaydi.

155-mashq. Nuqtalar o'rniga quyidagi tegishli so'z va so'z birikmalarning kerakli shaklini qo'yib, jummalarni ko'chirib yozing va tarjima qiling.

دیروز من دوستم را نزدیک کتابخانه ... از او خواهش کردم که با من
ناهار بخورد و او من هر روز در رستوران دانشکده ناهار می خورم
امروز برای خودم ... و ... برای حسن ... و ... سفارش می دهم. من از ...
شرقی خصوصاً ... خیلی خوشم می آید. آبگوشت را با ... و کباب کوبیده
را با ... می خورند. هر روز که در رستوران ناهار می خورم، برای
خودم چلو مرغ یا کباب کوبیده ایرانیان ... و ... دوست دارند و زیاد
می خورند. روی میز غذاخوری ... و تنگ آب خوری بود. آیا تو می دانی
چلو مرغ را چطور ...؟ امروز مادرم برای من سالاد ... تحیه کرد. من از
سالاد خیار تازه و همچنین از سالاد ... خیلی خوشم می آید و با اشتهای
کامل می خورم. شما ... لازم ندارید؟ اگر شما ... لازم داشته باشید، نمکدان
روی میز است، هر قدر بخواهید بگیرید. در رستوران ما ... غذاها را
خیلی خوب می پزند. خواهر کوچکم زیاد ... می خورد. (سوپ- آبگوشت- قبول کردن-
چلو مرغ- غذا- ملاقات کردن- کباب کوبیده- سفارش دادن - نخود- نان- چنگال- نمکدان- خیار
تازه- لوبیا- قاشق- شکر- بشقاب- پختن- نمک- آشپز- شیرینی- گوجه فرنگی)

156-mashq. matnida birinchi bob va majhul daraja sifatdoshlarini topib, ko'chirib yozing.

157-mashq. تشریف آوردن va تشریف بردن fe'llarini tegishli tarzda آمدن va رفتن fe'llari bilan almashtiring.

من از استاد پرسیدم: شما کجا می روید؟ دیشب پدرش به خانه ما آمد. آیا شما فردا
پیش ما می آیید؟ مادرت کی میرود؟ پدرتان کجا رفته است؟ آیا امروز مادر بزرگتان
می آید؟

158 -mashq. O'zingiz o'qiydigan o'quv yurtidagi oshxona haqida so'zlab bering.

159-mashq. Quyidagi jummalarni fors tiliga tarjima qiling:

Guruhimizdagi hamma talabalar institutimiz oshxonasida tushlik qiladilar.
Bu oshxonada ovqatlarni yaxshi tayyorlashadi va ular unchalik qimmat emas. Biz
ko'pincha Hasan bilan oshxonaga birga boramiz. Menga ham, Hasanga ham
ko'proq milliy o'zbek taomlari yoqadi. Ko'pincha biz sho'rva, palov yoki lag'mon
va qovurilgan jo'ja olamiz. Tushlikdan so'ng choy yoki qahva ichamiz.

Bugun biz oshxonaga soat uch yarimda keldik. Oshxonada odam (xo‘randalar) ko‘p emasdi. Biz deraza yonidagi stol atrofida o‘tirdik. Ofitsiant o‘sha zahotiyoq qoshiq, sanchqi, pichoq, tarelka va piyola keltirib, har birimizning oldimizga qo‘ydi. Tuzdon va qaynagan suvli grafin stolda turgan edi.

Avval biz yangi sabzavotlardan tayyorlangan salat yedik. Hasan o‘ziga pomidorli salatdan yana bitta oldi. Sho‘rva qo‘y go‘шти, yangi kartoshka va sabzidan tayyorlangan hamda juda xushmazali ekan. Sho‘rvadan keyin ofitsiant menga palov, Hasanga qovurilgan jo‘ja keltirdi. Palov juda chiroyli va yaxshi pishirilganini aytdi. U mendan so‘radi: «Palovga qanaqa go‘шт solishibdi?». Men javob berdim: «Qo‘y go‘шти».

Biz ishtaha bilan tushlik qildik. Tushlikdan so‘ng choy buyurdik. Choy unchalik shirin bo‘lmagani uchun yani ikki choy qoshig‘ida shakar soldik. Tushlik bizga juda yqdi. Ofitsiant va oshpazga rahmat aytib, oshxonadan chiqdik.

Uchinchi mashg‘ulot

Arabiy so‘zlardan ravish yasalishi

Arab tilida masdar va sifatdoshlarning oxiriga ا - an qo‘shimchasini orttirib, turli ravishlar yasash mumkin. Masalan: کامل komel- yetuk (I bob aniq nisbat sifatdoshi) كاملاً butunlay, to‘liq;

معمول Ma‘mul-oddiy, odatiy (I bob majhul nisbat sifatdoshi) معمولاً ma‘mulan-odatda, ko‘pincha va h.k.

Mazkur ravishlarning oxiridagi zabarli tanvin ularning arab tilidan o‘zlashganiga ishora qilib turadi.

160-mashq. Quyidagi arabiy ravishlarning ma‘nosi va qaysi bobga tegishli shakllardan yasalganini aniqlang.

تصادفاً، تخميناً، تقريباً، احتراماً، باطناً، ظاهراً، قبلاً، واقعاً، مخصوصاً.

161-mashq. Quyidagi ravishlardan tegishlisini nuqtalar o‘rniga qo‘yib, jumalarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling.

... به اطلاع شما می رساند که دانشجویان گروه ما از تعطیلات تابستانی بر گشتند. احمد آن روز ... سر کلاس آمده و حتی نمره خوب هم گرفته بود. چلو مرغ ... پخته شده بود. ... فردا بعد از پایان درسها در رستوران دانشکده ناهار بخورم. از دانشگاه تا مترو ما ... نیم ساعت راه است. ... ما هر روز در رستوران دانشکده ناهار می خوریم. (واقعاً - کاملاً - تصادفاً - احتراماً - تقريباً - معمولان)

162-mashq. در رستوران matn tarkibidan ا - an qo‘shimchali arabiy ravishdoshlar ishtirok etgan jumalarni toping.

To‘rtinchi mashg‘ulot

Miqdor sonlarning aniqlovchi vazifasini bajarishi

Miqdor sonlar predmet yoki hodisalarning miqdori, nechtaligini bildiradi, yani ularni miqdor jihatidan aniqlaydi. Predmet yoki hodisalarning miqdorini aniqlash uchun miqdor sonlarning o‘zi yoki ular qatnashgan birikmalar o‘zlari aniqlayotgan so‘zlardan oldin qo‘yilib, bitishuv usulida, yani izofasiz birikadi ba quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:

a) miqdor sonning yolg'iz o'zi aniqlovchi vazifasini bajaradi va undan keyin turgan so'z doimo birlik shaklida ishlatiladi:

پنج دانشجو panj doneshju- besh talaba

چهار کتاب chahor ketob- to'rt kitob

دو روز do'ruz- ikki kun va h. k.

b) predmet yoki hodisalarning miqdori chamalab aniqlangan holatda miqdor o'rniga چند chand- «bir necha» gumon olmoshi ishlatiladi va bu holatda ham keyingi so'z birlikda ishlatiladi:

چند دانشجو chand doneshju- bir necha talaba

چند کتاب chand ketob- bir necha kitob

چند روز chand ruz- bir necha kun va h. k.

s) miqdor sonlar yoki sonlar gumon olmoshidan so'ng hisob so'zlari ham ishlatilishi mumkin. Hisob so'zlari ham bitishuv usuli orqali birikadi. Har so'zlari shaxs, predmet va hodisalarga nisbatan ishlatilishiga qarab, quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi:

1) تا to bu hisob so'zi o'zbek tilidagi - ta qo'shimchasiga to'g'ri keladi va jonli, jonsiz predmetlarga nisbatan bema'lol ishlatilaveradi:

پنج تا میز Panj to miz- beshta stol

دو تا بچه Do to bache-ikkita bola va h.k.

2) دانه done - dona. Mazkur hisob so'zi donalab sanalishi mumkin bo'lgan barcha predmetlarga nisbatan ishlatiladi:

پنج دانه سیب panj done sib-besh dona olma

سه دانه مداد se done medod- uch dona qalam

3) نفر nafar-nafar va تن tan-nafar hisob so'zlari insonlarga nisbatan ishlatiladi:

پنج نفر دانشجو panj nafar doneshju- besh nafar talaba

سه تن دختر se tan do'xtar- uch nafar qiz va h. k.

4) رأس ra's - bosh hisob so'zi uy hayvonlariga nisbatan ishlatiladi:

دو رأس گاو do'ra's gov- ikki bosh sigir

ده رأس گوسفند dah ra's gusfand- o'n bosh qo'y

5) دست dast so'zi kiyim-kechak yoki to'plam ko'rinishiga ega bo'lgan predmetlar uchun (masalan, mebel) ishlatiladi:

یک دست کت و شلوار yek dast ko't-o' shalvor- bitta kostyum

سه دست مبل آشپزخانه se dast mo'bele oshpazxone-uch t o'plam oshxona mebeli na h. k.

6) جلد jeld- Jild, tom hisob so'zi kitoblarga nisbatan qo'llaniladi:

دو جلد کتاب do'jeld ketob- ikki jild kitob va h. k.

7) فروند farvand hisob so'zi kemalar, samolyotlarga nisbatan qo'llaniladi:

دو فروند کشتی do'farvand keshti- ikkita kema

سه فروند هواپیما se farvand havopeymo-uchta samolyotva h. k.

8) دستگاه dastgoh hisob so'zi avtomobillar, dastgoh va shu kabilarga nisbatan qo'llaniladi:

do‘ dastgoh o‘t o‘mobil-e savori-ikkita engil avtomobil va h. k.

9) bob sanoq so‘zi uy-joh va imoratlarga nisbatan qo‘llaniladi:

do‘ bob xone- ikkita uy va h. k.

10) jo‘ft -Juft sanoq so‘zi juft predmetlarga nisbatan qo‘llaniladi:

yek j o‘ft kafsh-bir juft oyoq kiyimi va h. k.

Yuqorida qayd etilganidek, to sanoq so‘zi universal xarakterga ega bo‘lib sonlarni bildiruvchi so‘zlardan tashqari, barcha predmet, hodisalarga nisbatan ishlatilishi mumkin:

do ta sib	do‘ to sib-ikkita olma
se ta pirohan	se to pirohan-uchta ko‘ylak
panj ta bz	panj to bo‘z-beshta echki
shsh ta ktob	shesh to ketob - oltita kitob
dah ta keshti	dah to keshti - o‘nta kema
haft ta avtomobil	haft to o‘to‘mobil-yettita avtomobil
chor to emorat	chor to emorat - to‘rtta imorat

Sanoq sonlar yoki gumon olmoshidan so‘ng predmetlarning turiga qarab uzunlik, o‘g‘irlik, vaqt, maydon, hajm, o‘lchovlarini ifodalovchi so‘zlar yoki so‘z birikmalari ham ishlatilishi mumkin:

yek estekon choy-bir stakan choy	yek estekon choy-bir stakan choy
do‘ kilu gusht-ikki kilo go‘sh	do‘ kilu gusht-ikki kilo go‘sh
se moh ta‘til-uch oy ta‘til	se moh ta‘til-uch oy ta‘til
chor metr porche-to‘rt metr gazlama va h.k.	chor metr porche-to‘rt metr gazlama va h.k.

163-mashq. Quyidagi so‘zlarga nisbatan qaysi sanoq so‘zlarni qo‘llash mumkinligini aniqlang va sanoq sonli birikmalar tuzing.

پنجره- کوه- لیمو- کشور- روز- خانه- مسکونی- کامیون- لباس- کیف- تمرین- درس- دانشجو- شکر- قهوه- قاشق- گروه- فیلم- اتوبوس- شیر- زمین.

164-mashq. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalaridan keraklisini nuqtalar o‘rniga qo‘ying va jummalarni yozib, tarjima qiling.

برادر بزرگ من، امسال دو... تعطیل داشت. پدیرت دیروز از بازار چند... انگور خرید. تو می دانی در گروه ما چند... دانشجو است. این دو... تمرین کتبی را برای فردا آمده کنیدی. سراسر بخش یونس آباد چندین... خانه مسکونی تازه ساخته شده است. این بنگاه کشاورزی خلی توانمند است و دارای پانصد... گاو، بیش از دو هزار... گوسفند و بز، نزدیک پنجاه... اتومبیل سواری و باری و حتی دو... کشاورزی می باشد. روز تعطیل در فروشگاه بزرگ بودیم و آنجا یک... کت و شلوار مشکی، دو... جوراب مردانه و سه... سرویس قهوه خوری خریدیم. چند... دانشجوی دانشگاه ما، امسال به ایران می روند. خواهر بزرگم سه... دختر دارد. (تن-نفر-کیلو-دانه-تا-باب-رأس-جفت-متر-دستگاه-فروند-جلد-دست-لیتر)

165-mashq. Quyidagi jummalarni fors tiliga tarjima qiling va sanoq so‘zlarning qo‘llanishiga e‘tibor bering.

Ukamning bir nechta o‘rtog‘i bor. O‘tgan kuni oyim bilan oziq-ovqat do‘koniga bordik va ikkita non, uch kilogramm shakar, yarim litr qaymoq, ikki

kilogramm go'sht xarid qildik. Har kuni Toshkentdan Moskvaga uchta samolyot parvoz qiladi. Stolning ustida har birimizga bitta qoshiq, ikkita sanchqi, bitta pichoq, bitta tarelka va bitta piyola qo'yilgan edi. Shahrimizda har yili bir necha ming uy quriladi. Menga bir juft qo'lqop bering. O'rtog'imning otasi uyida ikkita ot, bitta sigir va bir nechta qo'y boqadi. Har kuni shaharga yuzdan oshiq avtobus yo'lovchilarga xizmat qiladi. Kutubxonamizda bir necha ming kitob bor. Bugun men olti soat ishladim.

Beshinchi mashg'ulot

(باب دوم) Ikkinchi bob

Fors tilining lug'at tarkibida arab fe'l boblarining ikkinchisiga oid masdarlar va aniq va majhul nisbatan sifatdoshlari ham ko'plab uchraydi. Ikkinchi bobda masdarlar «biror ish-harakatni bajarishga undash, majburlash» ma'nosiga ega bo'ladi. Masalan: II bob masdari تفعیل taf'il qolipida yasaladi:

تعلیم tarsim -bo'lish, qismlarga ajratish (قسمت qesmat – qism,bo'lak); تعليم ta'lim- o'qitish, o'rgatish (علم 'elm- ilm; عالم 'olem-olim, bilimli).

II bob aniq nisbat sifatdoshi مفعّل mo'fa'el qolipida yasaladi: معلم mo'llem – muallim(o'qituvchi, bilim o'rgatuvchi); مقسم mo'qassem taqsimlovchi, bo'luvchi, tarqatuvchi; مؤلف mo'allef- muallif, tuzuvchi va h.k.

II bob majhul nisbat sifatdoshi مفعّل mo'fa'al qolipida yasaladi: مرتب mo'rattab- tartibga solingan, tartibli, معلق mo'allaq osib qo'yilgan, muallaq, مؤلف mo'allaf – tuzilgan, yozilgan va h. k.

II bob masdarlaridan ham ا - an qo'shimchali ravishlar yasalisi mumkin: تقريباً taqriban-deyarli; تخميناً taxminan-taxminan, deyarli va h. k.

166-mashq. Quyidagi o'zaklardan I bob aniq nisbat sifatdoshlarni yasang va tarjima qiling.

ش ع ر – ل ز م – ر خ ل - ورد - ح ضر ر - م ه ر - و ق ع - ع د ل - ظ ل م - ن ص ر -
ص ل ح - س ل م - ج ه ل - ج ل ب - ح ص ل .

167-mashq. Quyidagi o'zaklardan I bob majhul nisbat sifatdoshlari yasang va tarjima qiling.

خ ص ص - ع ر ف - ع ل م - ش ه ر - ن ص ر - ج ه ل - ج ب ر - ق ب ل - ح ص ل -
ذ ك ر - غ ر ر - ج ذ ب - ج ر ح - ح ب ب - ر س م - ط ل ب - ج ن ن - ح ب س - ح
م د - س ر ر .

168-mashq. Quyidagi o'zaklardan II bob masdarlarini yasang va tarjima qiling.

- ف ر ح - ق س م - ع ط ل - ر ت ب - ص د ق - ع ر ف - ب ر ك - ش ر ف -
ح ص ل - ش ك ل - س ك ن - ف س ر - ق د م - ق د ل - ف ت ش - ح ل ل - ط ب ق
- ض م ن - ش د د - س ل م .

169-mashq. Quyidagi o'zaklardan II bob aniq va majhul nisbat sifatlarini yasang va tarjima qiling.

ب د ل- ب ی ن- ج و ز- ح ر ر- ح ل ل- خ ف ف- د ب ر- ذ ه ب- س خ- س ک ن-
ش ر ف- س ل ح- ص م م- ظ ف ر- ق د م- ق ر ر- ک ر ر- ل ب س- ن ج م.

matnidan II bobga oid shakllarini toping va ko'chirib yozing. 170-mashq.
در رستوران دانشگاه.

Oltinchi mashg'ulot

در رستوران دانشگاه

زنگ زدند. درسهای ما تمام شد. دانشجویان می توانند یکی دو ساعت استراحت و تفریح بکنند. من و حبیب با هم وارد حیاط دانشگاه شدیم. از حبیب پرسیدم: گرسنه نیستی؟ گفت: چرا، گرسنه ام. گفتم: میل نداری با هم ناهار بخوریم؟ گفت: باشد، بفرمایید! با هم به رستوران رفتیم. اول داخل بوفه شدیم. در آنجا کره، پنیر، کالباس، تخم مرغ، شیر، ماست و شیرینی بود. به حبیب گفتم: من از اینجا نمی خواهم. میل دارم آبگوشت و لوله کباب بخورم. حبیب هم می خواست آش و پلو بخورد. با هم به سالن رستوران رفتیم. در سالن رستوران، چند نفر دانشجوی پشت میز غذاخوری نشسته بودند و ناهار می خوردند. پیشخدمت پیش ما آمد و بعد از سلام و علیک از ما پرسید: چه میل داری؟ من، آبگوشت و کباب کوبیده و چایی با لیمو و کیک سفارش دادم. از حبیب پرسیدم: تو چه میل داری؟ گفت: من آش و پلو و شیربرنج و یک استکان شیر قهوه می خورم. از حبیب پرسیدم: تو هر روز اینجا ناهار می خوری؟ جواب داد: بله، هر روز. گفتم: به نظرم در رستوران دانشگاه ما غذاهای خوب می پزند. به نظر تو اینطور نیست؟ جواب داد: چرا، همینطور است. غذاهای رستوران دانشگاه ما، خیلی خوب و ارزان است. پرسیدم: کدام غذا را بیشتر دوست داری؟ حبیب جواب داد: من برنج دوست دارم. اینجا پلو خوب می پزند و بیشتر اوقات پلو و شیربرنج می خورم. پرسیدم: اینجا هیچ کباب کوبیده خورده ای؟

گفت: بله، چند بار اینجا لوله کباب خورده ام. اینجا کباب کوبیده را هم خوب تهیه می کنند.

پرسیدم: آبگوشت دوست نداری؟

جواب داد: چرا، گاهی آبگوشت می خورم، ولی بیشتر آش دوست دارم. این است که بیشتر روزها آش سفارش می دهم.

گفتم: اینجا قیمت غذاها از ناهار خوری های دیگر ارزان تر است.

تصدیق کرد و گفت: بله، ارزانتر است. تو در اینجا می توانی با پولی نه چندان زیادی، غذای کامل که عبارت از غذای اول، دوم و شیرقهوه است بخوری، و حال آنکه در رستورانهای دیگر گران تر است.

حبیب از من پرسید: تو چطور، هر روز اینجا ناهار می خوری؟

جواب دادم: بله، من بیشتر اوقات اینجا ناهار می خورم. من دیگر به غذاهای اینجا عادت کرده ام، این است که تقریباً هر روز اینجا ناهار می خورم. در این وقت

حسن وارد سالن شد. مارا دید. پشت میز ما نشست و از ما پرسید: امروز ناهار چه داریم؟

گفتم: می گویند آش، آبگوشت و پلو خیلی خوشمزه است.

حسن پرسید: کباب کوبیده چطور؟

گفتم: مثل اینکه کباب کوبیده هم بد نیست.

پیشخدمت از حسن پرسید: شما چه میل دارید؟

حسن جواب داد: آش و پلو. بعد از پیشخدمت پرسید: آقا! اینجا میوه هم می

فروشند؟

پیشخدمت گفت: بله، در بوفه میوه هم می فروشند. دیروز سیب داشتیم، امروز

سیب و گلابی داریم آقا!

من گفتم: بله، سیب دیروز خیلی خوب بود، من چند تا خریدم و خوردم، خیلی

خوشمزه بود.

حبیب پرسید: قیمت میوه ها در اینجا گران تر از بازار است؟

جواب دادم: نه، بر عکس ارزان تر است.

در این موقع، پیشخدمت غذا را روی میز گذاشت و پرسید: چه کسی آبگوشت

سفارش داده است؟

جواب دادم: من.

بشقاب آبگوشت را جلوی من گذاشت و بشقاب های آش را جلوی حبیب و

حسن. آبگوشت، خوشمزه و خوب پخته شده بود، فقط نمک کم داشت. کمی نمک و

فلفل اضافه کردم و آبگوشت را با اشتای تمام خوردم و خیلی تعریف کردم. بعد برای

ما غذای دوم، چایی و شیر قهوه آوردند. پس از صرف ناهار از پیشخدمت تشکر

کردیم و از رستوران خارج شدیم.

Leksik izohlar

1. Nazar, fikr, qarash soʻzi fors tilida quyidagi birikmalar tarkibida koʻp ishlatiladi:

به نظر تو *benazar-e man*-menimcha, nazarimda, mening fikrimcha,

benazar-e toʻ-seningcha, nazaringda, sening fikringcha va h.k.

Bunday birikmalar tarkibidagi kishilik olmoshlari bemalol egalik qoʻshimchalariga almashtirishi ham mumkin:

benazar-e man به نظر من = *benazaram* به نظرم

benazar-e toʻ به نظر تو = *benazarat* به نظرت

Undan tashqari, kishilik olmoshlari va egalik qoʻshimchalari oʻrniga turli otlar ham ishlatilishi mumkin:

به نظر دانشجویمان *be nazar-e doneshjuyon*-Talabalarning fikricha

به نظر مؤسسين *benazar-e moʻassin*- taʼsischilarning fikricha va h. k.

2. *hich*- *hech* inkor soʻzi fors tilida mustaqil holda ham, turli birikmalar tarkibida ham ishlatilishi mumkin:

a) *hich*- inkor soʻzi *ki*? -kim? *chi*? -nima? soʻroq olmoshlari, *kas*- kishi, *kimsa*, *chiz*- narsa, *jo*- joy kabi otlar bilan birikma hosil qilib ishlatiladi. Jumlar tarkibidagi kesim doimo boʻlishsiz shaklga ega boʻladi:

hich ki injo nayomad? -bu yerga hech kim kelmadimi?
emruz hich jo namiravam-bugun hech qayerga bormayman.

b) *hich*- inkor soʻzi soʻroq gaplar tarkibida mustaqil holda ishlatilib, *hech* qachon, biror marta maʼnolarini ham ifodalashi mumkin. Soʻroq gapning kesimi bu holatda boʻlishli yoki boʻlishsiz shakllarga bimalol qoʻllanaveradi:

toʻ hich be in pork raftei-sen bu parkka hech borganmisan?

toʻ hich be in pork naraftei-sen bu parkka hech bormaganmisan?

171-mashq. Nuqtalar oʻrniga quyidagi tegishli soʻz va soʻz birikmalarining kerakli shaklini qoʻying va jumalarni koʻchirib yozib, oʻzbek tiliga tarjima qiling.

از دوستم پرسیدم... با هم به رستوران برویم؟ زنگ زدند و دانشجویان... در رستوران ما تخم مرغ، پنیر، کره، شیر، ماست و شیرینی می فروشند. من هر روز صبح... و شب... یا شیر می خورم. من باید به مغازه بروم و... ،... بخرم. شیر برنج را از... و... تهیه می کنند. برای پختن پلو... لازم است... شیرقهوه از چایی خوشمزه تر است. من به رستوران دانشکده ما... و بیشتر اوقات آنجا ناهار می خورم. بعد از ناهار، من... میوه می خورم یا چایی با... می نوشم. صبحانه من از دو عدد تخم مرغ، شیر یا ماست، نان، پنیر و کره... امسال میوه... نیست. از پارسال خیلی ارزان تر است. اگر شیرینی شیرقهوه کم است، تو خودت شکر... پیشخدمت، بشقاب و قاشق و چنگال و کاردر را روی... گذاشت و رفت. (داخل کلاس شدن- تخم مرغ- شیر میل داشتن- گران- کره- بوفه- ماست- لیمو- عبات بودن- عادت کردن- اضافه کردن- برنج- به نظرم- بیشتر اوقات- سینی)

172-mashq. *nazar*- *nazar* soʻzi qatnashadigan birikmalardan foydalanib, jumalarni fors tiliga yozma tarjima qiling.

Menimcha, oshxonamizda ovqatlarni juda yaxshi tayyorlashadi, seningcha qanday? Bizning nazarimizda, fors tili dunyodagi eng shirin (yoqimli) tillardan biridir. Oʻqituvchimizning fikricha, biz yaxshi oʻqiyapmiz va imtixonlardan qoʻrqmasligimiz kerak. Ularning fikricha, Toshkent Osiyodagi eng chiroyli shaharlardan biridir. Doʻstimning fikricha, bu yil mevalar juda arzon. Sizningcha, bu oshxonaning ovqatlari mazalimi? Seningcha, bu kostyum-shim menga yarashadimi?.

173-mashq. Quyidagi jumalarni fors tiliga yozma tarjima qiling.

Institutimizda bufet bor. U yerda pishirilgan tuxum, kolbasa, sut, qatiq, meva-cheva, shirinliklar sotishadi. Oshxonaga borgim kelmagan kunlari men bufetga kiraman. Odatda men bu yerga kolbasa, qatiq, pishloq va non xarid qilaman.

Shuningdek, sutli qahva yoki limonli choy ichaman. Ba'zan shirinliklar ham sotib olaman va o'sha yerda yeyman.

Do'stim Hasan hech qachon bufetda ovqatlanmaydi. U har doim oshxonaga boradi va u yerda ovqatlanadi. Tushlik paytida u sho'rva yoki ugra, palov yoki qiymali kabob yeydi. Hasan gurchli ovqatlarni juda yaxshi ko'radi. Shuning uchun u ko'pincha shirguruch ham buyurtma qiladi.

Menga guruch unchalik yoqmaydi. Bir kuni Hasanga dedim: «Menimcha, qiymali kabob palovdan ko'ra ancha mazaliroq». Hasan juda taajubga tushdi. U menga dedi: «Palov senga hech yoqmaydimi?». Men javob berdim: «Menga palov yoqmaydi deganim yo'q, lekin qiymali kabob menga palovga qaraganda ko'proq yoqadi». Hasan e'tiroz bildirdi: «Menimcha, palovdan mazaliroq ovqat yo'q».

Men va Hasan oshxonamizda ovqatlanishga o'rganib qolganmiz. Bizningcha, bu yerda ovqatlarni juda yaxshi tayyorlashadi va ovqatlar qimmat emas. Uncha ko'p bo'lmagan pulga oshxonamizga birinchi va ikkinchi taomlar va limonli choy yoki sutli qahvalardan iborat tushlik qilishingiz mumkin. Bundan tashqari apelsin, mandarin, uzum, olma, nok kabi mevalarni xarid qilsa bo'ladi.

درس سی و پنجم O'TTIZ BESIINCHI DARS

Birinchi mashg'ulot

Uchinchi bob (باب سوم)

Fors tiliga mazkur bobga oid masdarlar va sifatdosh shakllari ham o'zlashgan, lekin ular uncha keng ishlatilmaydi. Bu bobga tegishli masdar مفاعله *mo'fo'ele* yoki مفاعلت *mo'fo'elat* qoliplarida yasaladi:

مراجعة *mo'roje'e*- murojaat qilmoq, مراجعت *mo'roje'at* - qaytib kelish, مصاحبه *mo'sohebe* - suhbat, intervyu, مصاحبت *mo'sohebat*- suhbatlashish, muloqot va h.k.

III bobning aniq nisbat sifatdoshi مفاعل *mo'fo'el*- qolipida yasaladi:

مقابل *mo'qobel* -qarama-qarshi, teng, مصادف *mo'sodef* -vaqt jihatidan mos tushuvchi, to'g'ri keluvchi va h.k.

174-mashq. Quyidagi o'zaklardan III bob masdari shaklini yasang va tarjima qiling.

ک ت ب- خ رب- ل ح ض- خ ب ر- ک ل م- ن ظ ر- ب ح ث- ص د ر- ذ ک ر- ح و ر.

175-mashq. Quyidagi o‘zaklardan III bob aniq nisbat sifatdoshi yasang va tarjima qiling.

ل ز م- ن ف ق- خ ل ف- ن س ب- خ ط ب- د ف ع- د و م- د ه ن- ر ف ق- ر ق ب- ز ح م- و ح م- س ف ر- س ع د- س ل م- ش ب ه- ش ه د- ش و ر- ص ح ب- ط ب ق.

176-mashq. Nuqtalar o‘rniga quyidagi tegishli masdar va sifatdoshlarining kerakli shaklini qo‘yib, jummalarni ko‘chirib yozing va yozma tarjima qiling.

... می توانند با انواع و اقسام وسایل نقلیه از یک جا به جای دیگر بروند. ... ما خیلی طول کشید.... این موافقت نامه، طرفین وظایف زیر را به عهده می گیرند. من چند کتاب ... کتاب های درسی شما دارم. امروز جلسه ... تشکیل شد. خیر من ... به پیشنهاد شما نیستم. دانشگاه ما دارای شرایط و امکانات خیلی برای آموزش و تدریس زبان های خاوری (شرقی) می باشد. آنها در باره بهبودی کیفیت غذاها چند ساعت ... کردند. من نمی خواهم دیگر ... شما بشوم.... دوستان طی سه سال ادامه داشت. (مکاتبه- مکالمه- مزاحم- مذاکره- مخالف- مناسب- مسافران- مشابه-مشاور-مطابق)

Ikkinchi mashg‘ulot

To‘rtinchi bob (باب چهارم)

Arabiy fe‘l boblarining to‘rtinchisiga oid shakllar umumiy «biror harakatni bajarish» ma’nosiga ega. Biz bunday umumiy ma’noni II bob shakllarida ham kuzatgan edik. Lekin II-IV boblarining umumiy ma’no yo‘nalishlari ifodalanayotgan ish-harakat davomiyligi jihatidan farqlanadi. II bob shakllari ma’nosi doimiy yoki uzoq davom etadigan ish harakat bilan bog‘liq bo‘lsa, IV bob masdar va sifatdoshlarda, asosan, bir martalik yoki qisqa muddat ish-harakat ifodalanadi. Qiyoslang.

IV bob masdari افعال ef‘ol qolipida yasaladi. O‘zagidan ع ل م اعلام e‘lom- e‘lon qilish, bildirish (bir martalik qisqa mudatli ish-harakat).

Shu o‘zakdan yasalgan II bob masdari تعليم ta‘lim-o‘qitish, bilim berish (uzoq muddatli doimiy ish-harakat); IV bobning aniq nisbat sifatdoshi مفعل mo‘fel qolipida yasaladi. ب ص ر O‘zagidan شکل mo‘shkel -qiyin, mushkil; ش ک ل ب ص ر o‘zagidan مبصر mo‘bser - kuzatuvchi, tekshiruvchi, sinfboshi (maktabda) va h.k.

بازار و میوه و تره بار

من در شهر تاشکند زندگی می کنم. شهر تاشکند و بطور کلی سراسر کشور ما، معروف به داشتن میوه ها و سبزه های گوناگون بسیار شیرین و خوشمزه است. انواع و اقسام میوه و تره بار و خشکبار، تقریباً در تمام سال فراوان است. مخصوصاً فصل های تابستان و پاییز، بازارهای ما پر از میوه و سبزه ها می شود. باید گفت که اهالی شهر ما عادت کرده اند که میوه و تره بار را از بازار خرید کنند. به این خاطر، هر ناحیه و بخش شهر تاشکند، بازار های میوه و سبزه فروشی

دارد. بویژه سال های اخیر در تاشکند تعداد این بازارها زیاد شد. بازارهای تازه ای ساختند و بازارهای موجود را تعمیر و بازسازی کردند. بیشتر این بازارها، سرپوشیده است و مردم در تمام سال می توانند میوه و تره بار و خشکبار لازم را از آنجا بخرند. علاوه بر آن، در تاشکند مغازه های میوه و سبزه فروشی هم زیاد است. فصل های تابستان و پاییز، گوشه های خیابان های بزرگ و نزدیک ایستگاه های مرکزی مترو، مبدل به بازار و بازارچه های موقتی میوه و تره بار می شود. در این بازارها، دهقانان ولایات مختلف ازبکستان، محصولات کشاورزی و باغداری خود را برای مردم عرضه می کنند. این بازار های موقتی، اهالی نواحی مذکور را از ضرورت رفتن به بازار های بزرگ بی نیاز می سازد و مردم اینجا می توانند همه نوع میوه: انگور، سیب، گلابی، هلو، زردآلو و آلو و آلبالو، گیلاس بخرند. همچنین در این بازارها، سبزی ها و تره بار مختلف، مانند: خیار، خربزه، هندوانه، گوجه فرنگی، کلم، هویج، پیاز، سیر، سیب زمینی، بادمجان، چغندر، لپو و غیره بفروش می رسد. بازار های شهر تاشکند، خیلی مرتب و مدرن، یعنی خیلی دیدنی است. خانه ما نزدیک بازار "چهارسو" واقع است. این بازار، بزرگترین بازار میوه و تره بار و خشکبار شهر تاشکند می باشد. اینجا از صبح زود تا پایان روز، انواع و اقسام میوه ها و خشکبار گوناگون به فروش می رسد. برای هر نوع محصولات کشاورزی و باغداری، رسته ها و تیمچه های ویژه ای ترتیب داده اند. در آن قسمت بازار که زیر گنبد آبی بزرگ قرار دارد، رسته های خشکبار، مانند: پسته و گردو و بادام و برنج و باقلا و ادویه جات قرار دارد. رسته های لبنیات، ترشی فروشی، عسل فروشی هم در آنجا واقع است. بیرون از قسمت گنبدی، رسته های میوه و تره بار فروشی به چشم می خورد. آنجا میوه و تره بار را خیلی جالب می چینند که همیشه توجه خریداران را جلب می کند. برای گوشت فروشی هم، تیمچه جداگانه ساخته شده است و آنجا مشتریان می توانند گوشت تازه گوسفند، گاو و گوساله و اسب و همچنین کله و پاچه و روده حیوانات را بخرند. در همان اواسط پاییز، بازار های تاشکند پر از مرکبات، مانند: پرتقال، نارنگی، خرما، لیمو و کیوی و موز و غیره می شود و تا اواخر فصل بهار به غنا و تنوع میوه ها و تره بار می افزاید. خلاصه، خرید میوه و تره بار و خشکبار برای مردم تاشکند، مشکل نیست و آنها از بازار های مذکور هر چه بخواهند، هم ارزان و هم خوب خرید می کنند.

Leksik izohlar

خریدن *xaridan-sotib olmoq* fe'li jumla tarkibida nima? Nimani? So'roqlariga javob beruvchi vositasiz to'ldiruvchi yoki qayerdan? So'rog'iga javob bo'luvchi o'rin holining ishlatilishini talab qiladi. O'rin holi jumla tarkibida dar, az old ko'makchilari qatnashgan yoki tushurib qoldirilgan birikmalar bilan ifodalanadi:

sho'mo in ketob ro (az) ko'jo xaridid? -Siz bu kitobni qayerdan sotib oldingiz?

man in ketob ro(az) mag'ozeye ketobfo'rushi xaridam-men bu kitobni kitob do'konidan sotib oldim.

sho'mo in sib ro ko'jo xaridid? -Siz bu olmani qayerda xarid qildingiz?

man in sib ro(dar) bozor xaridam- men bu olmani bozorda xarid qildim.

xarid kardan murakkab fe'l bilan sinonim *xaridan* sodda fe'li bilan sinonim hisoblanadi:

mardo'm mive va tarebor-e lozemro az bozor mixarand -odamlar kerakli meva-chevani bozordan sotib oladilar (xarid qiladilar).

177-mashq. Quyidagi o'zaklardan IV bob masdari yasang va tarjima qiling.

خ ر ج - ش ک ل - ن ص ف - ج ر ب - ح س س - ح ر ق - ح س ن - ت ل ف -
ب ل غ - س ر ف - س ک ت - ع ر ص - ق ب ل - ق د م - ق ر ر .

178-mashq. Quyidagi o'zaklardan IV bob aniq nisbat sifatdoshi yasang va tarjima qiling.

خ ر ب - س ل م - ب ر م - ت ل ف - ث م ر - ح د ث - ح ر ق - ح س ن - خ ل س -
د ر ک - ر ش د - ز م ن - س ر ع - س ک ت - س ر ف .

179-mashq. Nuqtalar o'rniga quyidagi tegishli so'z va so'z birikmalarining kerakli shaklini qo'yib, ko'chiring va tarjima qiling.

در مقابل خانه ما، مغازه میوه فروشی است که در آنجا انواع ... می فروشند مثلاً: انگور، آلو، آلبالو، سیب، گلابی، و غیره. در مغازه دیگر، انواع و اقسام... را می فروشند، مثلاً: سیب زمینی، کلم، گوجه فرنگی، پیاز و غیره. امسال... و ... فراوان است. نه فقط در ... بلکه در گوشه ای از خیابان، میوه و تره بار می فروشند. درست در مقابل خانه ما، میوه فروشی است، آنجا ...، ...، ...، ... و میوجات دیگر به فروش می رسد. در مغازه های میوه و تره بار فروشی ... هم به فروش می رسد. آیا شما می دانید میوجات در کدام مغازه...؟ تابستان و پاییز... هر گوشه ای از خیابان ما میوه و تره بار می فروشند، ... در نزدیک خانه ما، دو مغازه میوه فروشی است که من هر روز از آنها، هر نوع میوه که بخواهم می خرم. شما ... را از کجا می خرید؟ از بازار یا از مغازه؟ شما از ... کی می گیرید؟ (تره بار- سیب- گیلان- میوه- گلابی- آلو- مغازه میوه و تره بار فروشی- انگور- به فروش رسیدن- سبزیجات- سیب زمینی- علاوه بر این - مسافرت- آلبالو)

Uchinchi mashg'ulot

Zamon va makon ma'nolarini ifodalovchi arabiy so'zlar

Arab tilida zamon va makon ma'nolarini ifodalovchi so'zlar ham maxsus qoliplar asosida yasaladi. Mazkur so'zlarning ko'pchiligi fors tili lug'at tarkibidan ham o'rin olgan. Zamon va makon ma'nosini ifodalovchi so'zlar quyidagi qoliplar asosida yasaladi:

1. مفعول *maf'el*: منزل *manzel-uy* manzil; محفل *mahfel-to'garak*, guruh; مسجد *masjed*- masjid va h.k.
2. مفعول *maf'al*: مركز *markaz*- markaz; مسكن *maskan-maskan*, -uy-joy; مقصد *maqsad*- maqsad ko'zlangan joy va h.k.
3. مفعلة *maf'ele*: مدرسه *madrased*- madrasa, maktab va h.k.
4. مفعلة *maf'ale*: محكمة *mahkama-sud*, tribunal; منظره *manzare*- manzara; مرحله *marhale*- bosqich, davr va h.k.

Arab tiliga o'zlashgan sifatlar

Arab tilidan fors tiliga ko'plab sifatlar ham o'zlashgan. Mazkur sifatlar *fa'il* qolipi asosida yasaladi:

جدید *jaded*- yangi; صحيح *sahih-to'g'ri*; وسیع *vasi'-keng* va h.k.

Bunday qolip asosida yasalgan sifatdoshlarning ko'pchiligi fors tilida ot sifatida ham ishlatiladi:

رفیق *rafiq-o'rtoq*; طبیب *tabib*-shifokor, tabib; مریض *mariz*-bemor, kasal va h.k.

180-mashq. Quyidagi o'zaklardan zamon va makon ma'nolarini ifodalovchi so'zlar yasavng va tarjima qiling.

ب ح ث – ر ص د – ع د ن – ع ر ض – ف ر ش – ق ب ر – خ ل ص – د ف ن –
ذ ب خ – س ن د – ش ر ق – غ ر ب – ک ت ب – ن ط ق – ط ب ع.

181-mashq. Quyidagi o'zaklardan tegishli qolip asosida sifatlar yasang va tarjima qiling.

ا خ ر – ا د ب – ا س ر – ا ص ل – ب خ ل – ب ش ر – ب ص ر – ت م ز – س ق ل – ج
ل ل – ح ب ب – ح ج م – ح ر ص – ح ر ف – ح ف ظ – ح ق ر – ح ک م – ح ل م – ح م
د – خ س س – ح ظ ب – خ ل ل – د ر ب – د ق ق – د ل ر – د ر م – ر ج م – ر ح م – ر د
ف – ر ش د – ر ق ب.

182-mashq. Quyidagi jummalarni fors tiliga tarjima qiling.

Bu yil Toshkentda meva-cheva juda ko'p. Sabzavot va mevalarni nafaqat bozorlar va do'konlarda, balki metro bekatlari yaqinidagi maydonlarda va katta ko'chalarning burchaklarida ham sotishayapti. Masalan: universitetimiz qarshisida har kuni olxo'ri, o'rik, shaftoli, uzum, nok va boshqa mevalar sotiladi. Uyimiz oldida bodring, pomidor, qovoq, karam, sabzi, piyoz, kartoshka, sarimsoq piyoz, turli tuman osh ko'klari va boshqa sabzavotlar xarid qilishingiz mumkin. Sabzavot va mevalar do'koni deyarli har bir mahallada bor. Bu do'konlarda bahorda va yoz faslining boshlarida gilos, yozda qulupnay, olcha, olma, nok, qishda limon, mandarin, va apelsin, sotiladi. O'zbekistonda yil bo'yi meva-cheva va sabzavotlar juda ko'p bo'ladi. Ayniqsa, yoz va kuz oylarida tarvuz, qovun, olma, shaftoli, pomidor, olxo'ri, bodring, kartoshka va boshqa meva-chevalar juda arzon bo'ladi.

Qish oylari bahorning o'rtalarigacha meva-chevalar bir oz kamayadi, lekin mandarin, xurmo, limon va apelsinlar deyarli yoz faslining boshlarigacha bozor va do'konlarda sotiladi.

Oilamizning barcha a'zolari meva-chevalarni juda yaxshi ko'rishadi. Yozda va kuzda ishdan qaytayotgan paytimda men har kuni turli-tuman mevalar xarid qilaman va uyga olib kelaman. Rafiqam ulardan turli xil murabbolar pishiradi. Men, ayniqsa, olcha murabbosini yaxshi ko'raman, rafiqamga esa qulupnay murabbosi yoqadi.

To'rtinchi mashg'ulot

گفتگو

- حبيب، مې بېنى امسال مېوه چقدر فراوان است؟
- بله، من هم ديروز به حسن گفتم: امسال خيلي مېوه فراوان است.
- مې داني نزديك ايستگاه متروى "استقلال" ميدان بزرگى هست؟
- بله مې دانم.
- هر سال اين ميدان را بازار مېوه فروشى مې كنند.
- از آنجا مېوه خريدى؟
- بله، هر روز از همانجا مېوه مې خرم.
- مگر تو در آن محله زندگى مې گنى؟
- بله، در محله نزديك ايستگاه مترو زندگى مې كنم.
- اين بازار مېوه فروشى به خانه شما نزديك است؟
- بله، اين بازار نزديك خانه ماست.
- چه مېوه هاى در اين بازار مې فروشند؟
- همه نوع و البته هر کدام در فصل خود، مثلاً ديروز زردالو، هلو، سيب و گلابى داشتند، چندى پيش توت فرنگى، آلو، آلبالو و گيلاس داشتند.
- امسال، آلبالو و گيلاس كم ديدم.
- چرا، در مغازه هاى مېوه فروشى خيابان ما در همين بازار، آلبالو و گيلاس زياد بود.
- چه وقت؟
- چندى پيش، حتى يك روز من چند كيلو آلبالو خريدم كه در منزل از آن مربا پختند.
- من مرباى آلبالو را خيلي دوست دارم.
- تشريف بياوريد منزل ما، ميل كنيد.
- مرحمت زياد، متشكرم. من هميشه مرباى آلبالوى آماده مې خرم. در بازار تره بار هم مې فروشند؟
- بله، در اين بازار خيار، خربزه، هندوانه و گوجه فرنگى هم مې فروشند، همچنين سيب زمينى، پياز، سير، كدو و كلم هم دارند.
- در اين صورت احتياج نداريد به بازار هاى مركزى برويد؟

- بله، همین طور است. من هیچوقت برای خرید میوه و تره بار به بازار مرکزی نمیروم، تا وقتی که این بازار هست، از اینجا و بعد از آن مغازه نزدیک خانه ما میوه و تره بار می خرم.
- این بازار تا کی و چند ماه خواهد بود؟
- این بازار، فقط ماه های ژوئیه، اوت و سپتامبر خواهد بود.
- چرا در ماه های بعد نخواهد بود؟
- برای اینکه این بازار در فضای باز است. هوا که بارانی و کم کم سرد می شود، کسی به آنجا نخواهد رفت.
- در محله شما مغازه های میوه فروشی زیاد است؟
- بله، در محله ما، در چند مغازه میوه می فروشند و یک مغازه بزرگ میوه فروشی هم است.
- در این مغازه ها همیشه میوه هست؟
- بله، در تمام مدت سال، مطابق فصل در این مغازه ها، میوه و تره بار می فروشند.
- مثلاً حالا آنجا چه میوه ای دارند؟
- دیروز زردالو، هلو و آلو داشتند و مدت دو ماه است که هر روز خیار، خربزه، هندوانه و گوجه فرنگی می فروشند. خربزه هم تا آخر سال دارند.
- خربزه هارا از کجا می آورند؟
- از اطراف شهر ها و ولایات دیگر از پاکستان که این خربزه ها خیلی خوشمزه و شیرین است.
- در این مغازه، همه وقت کلم تازه و کدو هست؟
- باید گفت که از ماه های آخر تابستان، تا آخر پاییز، کلم تازه و کدو می فروشند.
- در این مغازه، دیگر چه نوع تره باری می فروشند؟
- در این مغازه، امسال چند بار خرما خریدم. مثل اینکه خرما ی عراق بود.
- باید راضی باشی که این مغازه، نزدیک خانه شما است.
- بله، این مغازه، نزدیک خانه ما و کارم آسان است و لازم نیست که به جای دور بروم.

Leksik izohlar

1. *farovon* «mo‘l-ko‘l, ko‘p» so‘zi *ziyod-ko‘p* so‘zi bilan sinonim hisoblanadi. Ammo shuni qayd etib o‘tish lozimki, bu so‘zlarning ishlatilishi darajalari bir-biridan bir oz farq qiladi:

1) *ziyod-* so‘z turli predmet yoki shaxslar miqdorining ko‘pligini ifodalab, hech qanday cheklanishlarsiz ishlatilaveradi:

ketobhoye ziyod-ko‘p kitoblar

dhneshjuyone ziyod-ko‘p talabalar

emruz korm ziyod ast- bugun ishim ko‘p va h.k.

2) *farovon*- soʻzi esa koʻproq oziq-ovqat, yegulik narsalarga nisbatan ishlatilib, ularning moʻl-koʻlligini ifodalaydi. *mahsule farovon* - moʻl-koʻl hosil.

emruz mive farovon ast-bugun meva-cheva juda koʻp va h.k.

farovon-soʻzidan yasalgan *farovoni* soʻzi bevosita «farovonlik», «moʻl-koʻlchilik» maʼnolariga ega.

2. *moʻtobeq*- soʻzi ikki xil ishlatilishi mumkin.

1) asliy sifat tarzida, «oʻxshash», «mos», «mos keluvchi» kabi maʼnolarini ifodalagan holda;

2) izofali old koʻmakchi tarzida «... ga mos holda», «... ga muvofiq» maʼnolarini ifodalagan holda. Qiyoslang;

onho nazarote moʻtobeq doshtand-ularning fikrlari bir-biriga oʻxshardi.

anvoʻe mivejot moʻtobeq fasle xoʻd mirasad-turli mevalar oʻz fasliga muvofiq pishib yetiladi.

183-mashq. Quyidagi soʻzlarning qaysi bobga oidligini aniqlang.

